2020-yil 25-yanvardan chiqa boshlagan

YANGI O‘ZBEKISTON

Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 195 (1521), 2025-yil 20-sentabr, shanba

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news

UCHINCHI XALQARO HUNARMANDCHILIK FESTIVALI VA XALQARO KULOLCHILIK FORUMI ISHTIROKCHILARIGA

Hurmatli festival va forum ishtirokchilari!

Muhtaram mehmonlar!

Xonimlar va janoblar!

Siz, azizlarni jonajon Vatanimizning tarixiy shaharlaridan biri — qadimiy Ho‘qandi latifga yana katta bayram nafasini olib kelgan Xalqaro hunarmandchilik festivali va Xalqaro kulolchilik forumining ochilishi bilan chin qalbimdan samimiy muborakbod etaman.

Xalq amaliy san’atini, uning rivojlanish tarixi, maktab va an’analarini o‘rganish va targ‘ib etishga qaratilgan ushbu anjumanimizda dunyoning 70 dan ziyod mamlakatidan 300 nafarga yaqin mohir hunarmandlar, xalqaro tashkilotlar, madaniy va ilmiy jamoatchilik vakillari ishtirok etayotgani uning xalqaro nufuzi va obro‘-e’tibori tobora ortib borayotganidan dalolat beradi.

El-yurtimizning ko‘p asrlar davomida shakllangan boy madaniy merosi, milliy an’ana va qadriyatlarining ajralmas qismi bo‘lgan, o‘tmish va kelajak o‘rtasida bamisoli ma’naviy ko‘prik vazifasini bajarib kelayotgan hunarmandchilik sohasi rivojiga mamlakatimizda katta e’tibor berilmoqda. Natijada bu yo‘nalish iqtisodiyotimizning muhim tarmoqlaridan biriga aylanib bormoqda. Buning tasdig‘ini hunarmandlar, qo‘ligul ustalar, dizayner va yosh ijodkorlar uchun katta imkoniyatlar yaratilayotgani, ularning mahsulotlarini jahon bozoriga olib chiqish va milliy brend sifatida tanitish yo‘lida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilayotganida ko‘rish mumkin.

Ayniqsa, ushbu soha rivojlangan shahar va tumanlarda 11 ta hunarmandchilikni rivojlantirish markazlari tashkil etilgani, yillik mahsulot ishlab chiqarish hajmi 1 trillion 500 milliard so‘mdan oshgani hamda ularni dunyoning turli davlatlariga eksport qilish kengayib borayotganini ta’kidlash lozim.

Amaliy san’at turlarini qayta tiklashga qaratilgan izchil sa’y-harakatlarimiz natijasida ularning soni 43 taga yetdi, co‘ng-gi uch yilda turli yo‘nalishlarda mehnat qilayotgan 31 ming 500 nafar mohir ustalarimiz esa “Hunarmand” uyushmasi a’zoligiga ilk marotaba qabul qilindi.

Birgina “Ustoz va shogird” an’anasi asosida 118 ming nafar yosh, jumladan, kam ta’minlangan, vaqtincha ishsiz, nogironligi bo‘lgan fuqarolarning bandligi ta’minlangani soha rivoji ijtimoiy masalalarni hal etishda ham muhim ahamiyat kasb etib borayotganini ko‘rsatadi.

Mamlakatimizda o‘z kasbiga doimo ulkan mehr va sadoqat bilan mehnat qilib kelayotgan hunarmandlarning mashaqqatli mehnatini rag‘batlantirishga ham alohida e’tibor berilmoqda, ko‘plab soha vakillari davlatimizning yuksak unvon, orden va medallari bilan taqdirlanmoqda.

Hurmatli anjuman ishtirokchilari!

Festival doirasidagi xalqaro konferensiyalar, ko‘rgazma va yarmarkalar, milliy liboslar namoyishlari va uchrashuvlar, Rishton tumanida o‘tkaziladigan Xalqaro kulolchilik forumi o‘ziga xos ijodiy muloqotlar maydoni, yosh hunarmandlar uchun mahorat darslari bo‘lib xizmat qiladi, albatta.

Ma’lumki, Jahon hunarmandlar kengashi qarori bilan Buxoro, Qo‘qon va Marg‘ilon kabi qadimiy shaharlarimiz “Jahon hunarmandlar shahri” degan yuksak maqomga sazovor bo‘lgan edi. Bu yil ularning qatoriga Rishton va Shahrixon shaharlari ham qo‘shilmoqda.

Shu kunlarda TURKSOY Bosh kotibiyati tomonidan Qo‘qon shahriga yana bir sharafli nom — “Turkiy dunyoning hunarmandlari shahri” degan maqom berildi. Biz bularning barchasini mamlakatimizda xalq amaliy san’atini rivojlantirishga qaratilgan ishlarimizning xalqaro miqyosdagi yana bir e’tirofi sifatida qabul qilamiz.

Azaldan o‘zining go‘zal an’analari, jumladan, hunarmandchilik maktablari, mahorat bobida tengsiz ustalari bilan shuhrat qozongan betakror Farg‘ona zaminida o‘tayotgan ushbu san’at bayramlari madaniy hayotimizda chuqur iz qoldiradigan, do‘stlik va hamjihatlik rishtalarini yanada mustahkamlaydigan, yosh avlod uchun keng imkoniyatlar ochadigan unutilmas voqea bo‘lib qoladi, deb ishonaman.

Barchangizga sihat-salomatlik, yangi ijodiy yutuqlar, festival hamda forum ishiga muvaffaqiyatlar tilayman.

Shavkat MIRZIYOYEV,
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti

TIBBIYOTNI AHOLIGA YAQINLASHTIRISHNING YANGI MODELI JORIY ETILADI

Prezident Shavkat Mirziyoyev 19-sentabr kuni sog‘liqni saqlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari yuzasidan hisobot bilan tanishdi.

Bugungi kunda mamlakatimizda birlamchi tibbiy-sanitariya yordamini ko‘rsatishning xalqaro tajribaga asoslangan va tibbiyotni aholiga yaqinlashtirishga qaratilgan yangi modelini joriy etishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Shu asosda ko‘p tarmoqli markaziy poliklinikalar, oilaviy shifokor punktlari va oilaviy poliklinikalar, mahalla tibbiyot punktlari yagona yondashuv asosida rivojlantirilmoqda.

Buning natijasida oilaviy shifokorlar ulushini 70 foizga yetkazish mo‘ljallangan. Raqamlashtirish va qog‘oz hujjat aylanishini qisqartirish orqali tibbiyot xodimlarining ish yuklamasini qariyb uchdan bir qismga kamaytirish, fuqarolarning birlamchi bo‘g‘in xizmatlaridan qoniqish darajasini 85 foizdan oshirish maqsad qilingan. Shu bilan birga, tibbiyot xodimlarini moddiy rag‘batlantirishning ularning kasbiy samaradorligiga bevosita bog‘liq bo‘ladigan yangi tizimi joriy etilmoqda.

Prezidentimiz ixtisoslashgan yordamni tubdan takomillashtirish muhimligini ta’kidladi. Mamlakatimizda o‘nlab ilmiy-amaliy tibbiyot markazlari mavjud bo‘lib, ular zamonaviy asbob-uskunalar bilan jihozlanmoqda, byudjetdan katta mablag‘ ajratilmoqda.

Shu bilan birga, aholi orasida xizmat sifati va uzun navbatlar yuzasidan e’tiroz-lar saqlanib qolmoqda. Ixtisoslashtirilgan markazlarda davolashning xalqaro standartlarini joriy etish, birlamchi bo‘g‘inda metodologik ishlar sustligi ko‘rsatib o‘tildi.

Shu bois, barcha respublika ixtisos-lashtirilgan klinikalari faoliyatini qayta ko‘rib chiqib, ularning boshqaruviga zamonaviy, professional menejerlarni jalb qilish taklifi bildirildi. Turkiyalik mutaxassislar faoliyat yuritayotgan Respublika onkologiya va radiologiya markazi bunga yorqin misol bo‘la oladi.

Ayni paytda klinik protokollarni qayta ko‘rib chiqish va yangilash davom etmoqda: hozirgacha 400 tasi qayta ko‘rildi, yil oxirigacha bu ko‘rsatkich ikki baravar oshadi. Osiyo taraqqiyot banki ko‘magida uch mingdan ziyod tibbiy xizmatlar uchun tariflar metodologiyasi ishlab chiqilmoqda.

Davlatimiz rahbari yana beshta markazga xorijiy professional menejerlarni jalb qilish yoki ularni xorijdagi nufuzli klinikalar boshqaruviga berish imkoniyatini o‘rganishga topshiriq berdi.

Bunda xalqaro tajriba asosida diagnos-tika va davolash standartlari ishlab chiqilishi, milliy klinik protokollar yaratilishi, yangi texnologiyalar joriy qilinishi, markazlarni rivojlantirish bo‘yicha uzoq muddatli strategiya ishlab chiqilishi, yuqori malakali mutaxassislar jalb etilishi, aholiga sifatli tibbiy yordam ko‘rsatishning shaffof va adolatli tizimi yaratilishi shartligi ta’kidlandi.

Yig‘ilishda bolalar salomatligini muhofaza qilish chora-tadbirlari ham muhokama qilindi.

Ta’kidlanganidek, butun dunyoda bolalarni ona suti bilan oziqlantirish muammosi dolzarb bo‘lib, ona sutining o‘rnini bosuvchi mahsulotlardan foydalanish sur’ati ortib bormoqda.

2030-yilga qadar Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti tomonidan tavsiya etilgan ko‘rsatkich — 6 oygacha bo‘lgan bolalarning 70 foizi faqat ona suti bilan oziqlantirilishiga erishish maqsadida mamlakatimizda ona suti bilan oziqlantirishni qo‘llab-quvvatlash milliy dasturi tasdiqlanadi.

Dastur doirasida JSST va UNICEFning “Ona suti bilan oziqlantirish uchun qulay sharoit yaratuvchi tibbiyot muassasasi” va “Ona suti bilan muvaffaqiyatli oziqlantirish sari 10 qadam” tashabbuslari joriy etiladi. Tibbiyot xodimlarini ona suti bilan oziqlantirish bo‘yicha o‘qitish, homilador ayollar va onalarning bilimini oshirish tadbirlari o‘tkaziladi.

Qonunchilikka ona suti o‘rnini bosuvchi mahsulotlar reklamasini cheklashga qaratilgan o‘zgartirishlar kiritish, shuningdek, bolalar uchun mo‘ljallangan oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish, import va eksport qilish, tashish, saqlash, sotish va yetkazib berishga oid talablar hamda standartlarni takomillashtirish taklif etildi.

Prezidentimiz bildirilgan takliflarni ma’qullab, tibbiyotni aholiga yaqinlashtirish va sifatini oshirish, yuqumli bo‘lmagan kasalliklardan o‘limni kamaytirish, yosh avlod salomatligini mustahkamlash bo‘yicha qator topshiriqlar berdi.

O‘zA

O‘ZBEKISTON PREZIDENTI BMT BOSH ASSAMBLEYASINING 80-SESSIYASIDA ISHTIROK ETADI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 80-yubiley sessiyasi tadbirlarida ishtirok etish uchun 20-24-sentabr kunlari amaliy tashrif bilan Nyu-York shahrida bo‘ladi.

Davlatimiz rahbari BMT Bosh Assambleyasi yalpi sessiyasi umumiy munozaralarining birinchi kunida nutq so‘zlaydi.

Ta’kidlash joizki, Bosh Assambleyaning bu yilgi yubiley sessiyasida global xavfsizlik va barqarorlikni ta’minlash, Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish, BMT tizimi va xalqaro moliya arxitekturasini isloh qilish, iqlim o‘zgarishi oqibatlari va boshqa zamonaviy xatarlarga qarshi kurashishning dolzarb masalalari ko‘rib chiqiladi.

Sammit doirasida O‘zbekiston yetakchisi BMT Bosh kotibi Antoniu Guterrish, xorijiy davlatlar va hukumatlar, nufuzli xalqaro moliyaviy institutlar rahbarlari bilan muzokaralar o‘tkazadi.

Tashrif dasturining ishbilarmonlik qismidan AQSHning yetakchi kompaniyalari va moliyaviy-investitsiya tuzilmalari ishtirokida uchrashuv va tadbirlar o‘rin olgan. Yangi kelishuv va shartnomalar to‘plami imzolanishi kutilmoqda.

O‘zA

O‘ZBEKISTON – BMT: BARQAROR TARAQQIYOT SARI MUHIM HAMKORLIK

O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 20-24-sentabr kunlari amaliy tashrif bilan Nyu-York shahrida bo‘lib, Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 80-yubiley sessiyasi tadbirlarida ishtirok etadi.

O‘zbekiston 1992-yil 2-martda BMTga to‘la huquqli a’zo bo‘ldi. Bu qadam yosh mustaqil respublika nafaqat barcha xalqaro jarayonlarda faol ishtirok etishga, balki o‘z tashqi siyosatini xalqaro huquq va BMT Nizomiga hurmat tamoyillariga asoslashga tayyor ekanligining asosiy tasdig‘i bo‘ldi.

Shundan buyon o‘ttiz yildan ko‘proq vaqt o‘tdi va shu davr ichida rasmiy Toshkent takliflari xalqaro maydonda keng aks sado berayotgan faol global tashabbuslardan biriga aylandi.

BMTdagi ishtirok O‘zbekiston mus-taqilligini mustahkamlash, uning suvereniteti xalqaro hamjamiyat tomonidan tan olinishini ta’minlash, barcha davlatlar bilan teng huquqli muloqot uchun zamin yaratishda muhim omil bo‘lyapti. 1993-yilda Toshkentda BMT vakolatxonasining ochilishi hamkorlikning uzoq muddatli xarakterini mustahkamlagan yana bir muhim voqea sifatida tarixga kirdi.

Davomi 2-betda

Shukuh

DUNYO HUNARMANDLARI QO‘QONDA JAM BO‘LDI

Kecha, 19-sentabr kuni Uchinchi Xalqaro hunarmandchilik festivali va Xalqaro kulolchilik forumi boshlandi. Uning ochilishi munosabati bilan Prezidentimiz ishtirokchilarga tabrik yo‘lladi.

Ko‘hna Qo‘qon har qachongidan-da gavjum, fayzli. Xalqaro festival va forumda 70 dan ziyod mamlakatdan 300 nafarga yaqin mohir hunarmandlar, xalqaro tashkilotlar, madaniy va ilmiy jamoatchilik vakillari ishtirok etmoqda.

“Hunarmand” uyushmasi tashabbusi bilan tadbirga ilk bor xalqaro toifadagi savdo agentlari, brendlashtirish sohasidagi ekspertlar, Parijning taniqli feshn mutaxassislari, elektron tijorat (e-commerce) bo‘yicha mutaxassislar, xalqaro ansambllar va Santa-fedagi Xalqaro xalq amaliy san’ati yarmarkasi (IFAM) rahbariyati kelgan. Bu, albatta, ushbu yo‘nalishda hamkorlik istiqboli uchun juda muhim.

Davomi 3-betda

YO‘LLAR BIZNI YANGI MANZILLARGA ELTAR

Yangi O‘zbekiston ruhi

Yo‘llar... Ular bizni yangi manzillarga yetaklar, odamni o‘yga tortar, o‘zgarishlarni ko‘rsatar. Bolaligimdan sayohat qilishni juda yaxshi ko‘raman. Keyingi 20-25 yil davomida ishim taqozosi bilan ko‘plab xorij davlatlarida bo‘ldim, O‘zbekiston bo‘ylab ham ko‘p sayohat qildim, ajoyib maskanlarni o‘zim uchun kashf qildim.

Turizm salohiyati Chimyon tog‘lariga bo‘ylashmoqda

Oxirgi haftalarda Toshkent viloyatining Chimyon taraflariga tez-tez bordim, aylandim, yo‘llarni ko‘rdim. Tasodifni qarangki, ish yuzasidan “Renessans” oromgohi atrofida ham bo‘ldim. Yo‘llarda kezar ekansiz, har doim taqqoslaysiz: ilgari qanday edi, hozir-chi? Yiliga qancha o‘zgarish bo‘lyapti deb o‘ylaydi kishi.

Birinchi navbatda, tabiatga e’tibor beriladi. Tabiat go‘zalligini, yashil makonga aylanib, yo‘l chetlarida haqiqatan yashil belbog‘ yaratilganini ko‘rib xursand bo‘lasiz. Yo‘llar asfalt qilingani, tekis chiziq qilib chizilgani, chiroqlar zimiston ko‘chalarni yoritib turganidan ko‘nglingiz ham yorishadi.

Ikkinchi jihati yana quvonarli, biz dunyo turizmi haqida ko‘p gapiramiz, l**ekin ichki turizm-ni rivojlantirish ham juda muhim. E’tiborlisi, bugun ichki turizm rivojini ko‘ryapmiz.** Masalan, joriy yilda qo‘shni davlatlar — Tojikistonga 500 ming kishi, Qirg‘izistonga 1 million odam sayohat qilib, aylanib keldi. Bu juda yaxshi natija. Lekin Buxoroda yashab turib Toshkentga kelmaganlar qancha? Toshkentliklardan Samarqandga bormagani-chi?

Davomi 3-betda

O‘ZBEKISTON – BMT: BARQAROR TARAQQIYOT SARI MUHIM HAMKORLIK

O‘zbekiston Orolbo‘yi bo‘yicha qator tashabbuslarni ilgari surgani bejiz emas, ular xalqaro hamjamiyat tomonidan qo‘llab-quvvatlandi. Xususan, 2018-yilda BMT shafeligida Orolbo‘yi mintaqasi uchun Inson xavfsizligi bo‘yicha ko‘p tomonlama sheriklik asosidagi Trast fondi tashkil etildi.

Boshlanishi 1-betda

O‘zbekistonning BMT doirasidagi ustuvor yo‘nalishlari dastlab xalqaro va mintaqaviy xavfsizlikni ta’minlash, zamonaviy chaqiriq va tahdidlarga qarshi kurashish, barqaror rivojlanishga ko‘maklashish, ekologik muammolarni hal etishdan iborat. Global ekologik inqirozga aylangan Orol dengizi muammosiga alohida e’tibor qaratildi.

O‘zbekiston Orolbo‘yi bo‘yicha qator tashabbuslarni ilgari surgani bejiz emas, ular xalqaro hamjamiyat tomonidan qo‘llab-quvvatlandi. Xususan, 2018-yilda BMT shafeligida Orolbo‘yi mintaqasi uchun Inson xavfsizligi bo‘yicha ko‘p tomonlama sheriklik asosidagi Trast fondi tashkil etildi.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibi Antoniu Guterrish O‘zbekistonga ikki marta — 2017-yil iyun va 2024-yil iyul oylarida tashrif buyurdi. Tashriflar Toshkentning global muammolarni muhokama qilish maydoni sifatidagi roli ortib borayotganini tasdiqladi.

2024-yil iyul oyida BMT Bosh kotibi Antoniu Guterrish tashrifi chog‘ida shunday degan edi: “O‘zbekiston tinchlik va xavfsizlik, inson huquqlari, iqlim va barqaror rivojlanish kabi barcha sohalarda bizning ishonchli hamkorimizdir. Mamlakat BMTning ko‘p tomonlama kun tartibini ilgari surishda oldingi o‘rinlarda turadi”. Bunday yuksak baho O‘zbekiston bilan BMT o‘rtasidagi aloqalar mintaqaviy xavfsizlikni mustahkamlashdan tortib, global Barqaror rivojlanish maqsadlarini amalga oshirishgacha har tomonlama faollashganini tasdiqlaydi.

2024-yilda Antoniu Guterrish jahonda hamjihatlik va birdamlikni faol ilgari surish, tashkilot faoliyati samaradorligini oshirish, shuningdek, mamlakat va BMT o‘rtasidagi hamkorlikni mustahkamlashdagi xizmatlari uchun O‘zbekistonning oliy davlat mukofotlaridan biri — oliy darajali “Do‘stlik” ordeni bilan taqdirlandi.

O‘zbekiston Prezidenti BMT Bosh Assambleyasi sessiyalarida muntazam ravishda nutq so‘zlaydi. Uning 72-, 75-, 76- va 78-sessiyalardagi nutqlari mintaqaviy xavfsizlik, iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashish, inson huquqlarini himoya qilish va sivilizatsiyalararo muloqotni rivojlantirishga qaratilgan muhim siyosiy bayonotlarga aylandi.

O‘zbekiston delegatsiyasining qator xalqaro forumlar, jumladan, 2025-yilda Turkmanistonda bo‘lib o‘tgan Dengizga chiqish imkoni bo‘lmagan rivojlanayotgan davlatlar bo‘yicha BMT konferensiyasidagi ishtiroki ham muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Bu tadbirlar nafaqat O‘zbekistonning faol ishtirokini, balki mintaqa va butun xalqaro hamjamiyat manfaatlariga xizmat qiladigan takliflar kiritishga tayyorligini ham ko‘rsatdi.

2018-yildan 2025-yilgacha O‘zbekiston BMT Bosh Assambleyasining 13 ta rezolyutsiyasi tashabbuskori bo‘ldi. Ular mintaqaviy xavfsizlikdan barqaror turizm va ekologik muammolargacha bo‘lgan keng doiradagi mavzularni qamrab oladi.

“Markaziy Osiyo mintaqasida tinchlik, barqarorlik va izchil taraqqiyotni ta’minlash bo‘yicha mintaqaviy va xalqaro hamkorlikni mustahkamlash” (2018-yil), “Orolbo‘yi mintaqasini ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar hududi deb e’lon qilish to‘g‘risida” (2021-yil), “Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishni jadallashtirishda parlamentlarning rolini kuchaytirish to‘g‘risida” (2022-yil) va “O‘rmonlarni o‘stirish va qayta tiklash bo‘yicha harakatlar o‘n yilligi” (2025-yil) rezolyutsiyalari shular jumlasidandir.

Ushbu tashabbuslarning har biri Toshkentning xalqaro sa’y-harakatlarni birlashtirishga qaratilgan g‘oyalar generatori bo‘lishga intilishini namoyish etdi. Xususan, Orolbo‘yi mintaqasini ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar hududi sifatida e’tirof etish g‘oyasi global ekologik halokatga e’tiborni qaratish va xalqaro hamkorlikning yangi mexanizmlarini yaratishga xizmat qildi.

Bundan tashqari, O‘zbekiston tomonidan ishlab chiqilgan “Pandemiya davridagi davlatlarning ixtiyoriy majburiyatlari to‘g‘risida”gi kodeks O‘zbekistonning COVID-19ga qarshi global kurashga qo‘shgan hissasi sifatida BMT Bosh Assambleyasining rasmiy hujjati o‘laroq tarqatildi. E’tiborlisi, ushbu tashabbus inqiroz davrida global birdamlikning muhimligini ta’kidladi.

O‘zbekiston mintaqada birinchilardan bo‘lib BMT Barqaror rivojlanish maqsadlarini (BRM) milliy strategik hujjatlarga kiritdi. 2018-yilda BRMlar bo‘yicha Milliy muvofiqlashtiruvchi kengash tashkil etildi, 2020-yilga kelib esa mamlakat sharoitlariga moslashtirilgan 125 ta ko‘rsatkichdan iborat keng qamrovli milliy ro‘yxat tasdiqlandi.

Joriy yilda O‘zbekiston BRM global indeksida 19 pog‘onaga ko‘tarildi va dunyodagi eng tez rivojlanayotgan beshta davlat qatoriga kirib, mintaqada yetakchiga aylandi.

2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida va 2030-yilga qadar Milliy rivojlanish konsepsiyasida BMTning kambag‘allikka barham berish, sifatli ta’lim, gender tengligi, sog‘liqni saqlash, atrof-muhitni boshqarish va raqamli transformatsiya kabi global maqsadlariga mos keladigan ustuvor vazifalar belgilangan.

BMT agentliklari bilan hamkorlikda O‘zbekiston bir qator amaliy natijalarga erishdi. Xususan, 2022-2024-yillarda kambag‘allik darajasi 17 foizdan 8,9 foizga tushib, mintaqadagi eng dinamik ko‘rsatkichlardan biriga aylandi. UNICEF, Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT) va BMT Taraqqiyot Dasturi (BMTTD) tomonidan qo‘llab-quvvatlangan Ijtimoiy to‘lovlarning yagona reyestrining joriy etilishi aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini qamrab olish darajasini ikki baravar, ya’ni 600 mingdan 1,2 million kishiga oshirdi. UNICEF va Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti dasturlari bolalarni emlash darajasini oshirishga va maktab tizimini modernizatsiya qilishga yordam berdi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti (FAO) va BMTTDning Orolbo‘yi mintaqasida o‘rmonlarni qayta tiklash bo‘yicha loyihalari mintaqaning ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar hududi maqomini mustahkamladi.

Ayni paytda mamlakatimizda BMTning ko‘plab agentliklari, jumladan, BMTTD, UNICEF, FAO, XMT, UNESCO, Qochqinlar bo‘yicha oliy komissari boshqarmasi va boshqalar faoliyat yuritmoqda. Ular birgalikda 2021-2025-yillarga mo‘ljallangan Barqaror rivojlanish bo‘yicha hamkorlik asoslari doirasida umumiy qiymati 293 million dollardan ortiq bo‘lgan 166 ta loyihani amalga oshiryapti.

So‘nggi yillarda O‘zbekistonga UNESCO Bosh direktori Odri Azuledan tortib, UNICEF ijrochi direktori Ketrin Rassel va Jahon intellektual mulk tashkiloti bosh direktori Daren Tanggacha bo‘lgan BMT agentliklarining o‘nlab rahbarlari tashrif buyurdi. Bu tashriflar global muammolarni muhokama qilish uchun muhim maydonga aylanib borayotgan mamlakatga qiziqish ortayotganining tasdig‘idir.

2023-yilda Samarqandda Jahon turizm tashkiloti (UNWTO) Bosh assambleyasining 25-sessiyasi, 2025-yilda esa Davlat xizmati forumi bo‘lib o‘tdi.

2024-yilda Samarqandda o‘tkazilgan BMTning Davlat xizmati forumi va “BMT — ayollar” tuzilmasi bilan hamkorlikda o‘tkazilgan Osiyo xotin-qizlari forumi O‘zbekistonning muhim xalqaro tashabbuslar markazi sifatidagi roli ortib borayotganining yorqin namunasi bo‘ldi.

Joriy yil may oyida Toshkentda “BMT — ayollar” tuzilmasi vakolatxonasining rasmiy ochilishida O‘zbekistonning gender tengligini ta’minlash va xotin-qizlar huquqlarini kengaytirish borasida erishgan yutuqlari e’tirof etildi.

2025-yilda Termiz shahridagi Xalqaro transport va logistika markazi Birlashgan Millatlar Tashkilotining Qochqinlar bo‘yicha Oliy komissari boshqarmasining global ta’minot zanjiriga integratsiya qilinib, mamlakatning gumanitar jarayonlardagi rolini kuchaytirdi.

Yurtimizning BMT institutlari bilan hamkorligidagi muhim bosqich O‘zbekistonning 2021-2023-yillar uchun Inson huquqlari bo‘yicha kengashiga saylangani bo‘ldi. Ushbu voqea mamlakatning inson huquqlarini himoya qilish va milliy institutlarni isloh qilish borasidagi sa’y-harakatlari e’tirofini mustahkamladi.

Bundan tashqari, O‘zbekiston BMTning Iqtisodiy va ijtimoiy kengashi (ECOSOS, 2025-2027), XMT boshqaruv organi (2024-2027), Inson huquqlari qo‘mitasi (2025-2028), BMT Statistik komissiyasi (2026-2029) va UNESCOning nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish bo‘yicha hukumatlararo qo‘mitasiga a’zo bo‘ldi.

Rasmiy Toshkent hozirdanoq BMT Xavfsizlik kengashining 2035-2036-yillar uchun doimiy bo‘lmagan a’zoligiga o‘z nomzodini faol ilgari surmoqda, bu esa xalqaro diplomatiya rivojida yangi bosqich bo‘ladi.

2025-yil oktyabr-noyabr oylarida Samarqand shahrida UNESCO Bosh konferensiyasining 43-sessiyasi bo‘lib o‘tadi. Bu voqea nafaqat O‘zbekiston, balki butun xalqaro tashkilot tarixiga muhim hodisa bo‘lib kiradi. Ya’ni 40-yil ichida birinchi marta UNESCO Bosh konferensiyasi tashkilotning an’anaviy bosh qarorgohi — Parijdan tashqarida o‘tadi. Bunday keng ko‘lamli forumni o‘tkazish joyi sifatida Samarqandning tanlangani bejiz emas. UNESCOning Umumjahon merosi ro‘yxatiga kiritilgan ushbu qadimiy shahar Sharq va G‘arbni birlashtirgan madaniyat va sivilizatsiyalar chorrahasi o‘laroq shuhrat qozongan. O‘zbekiston uchun ushbu qaror mamlakatning madaniy merosini asrab-avaylash, fan, ta’lim va madaniyat sohasida xalqaro hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan sa’y-harakatlarini e’tirof etilishidir. Shuningdek, bu mamlakatning xalqaro maydonda ishonchi yuksakligidan dalolat beradi.

Bularning barchasi O‘zbekiston xalqaro jarayonlarning markaziga aylanganini tasdiqlaydi.

BMT bilan o‘ttiz yillik hamkorlikda O‘zbekiston xalqaro hamjamiyatning yosh a’zosidan global yechimlarning faol tashabbuskorlaridan biriga aylandi. Bugungi kunda mamlakat nafaqat tashkilot maqsadlarini amalga oshirishda ishtirok etadi, balki iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashishdan tortib, sivilizatsiyalar o‘rtasidagi muloqotni rag‘batlantirishgacha bo‘lgan tegishli kun tartibini shakllantirishda ham tashabbus ko‘rsatmoqda.

Rasmiy Toshkent uchun BMT ko‘p tomonlama diplomatiyaning eng muhim platformasi bo‘lib qolmoqda. O‘zbekiston esa xalqaro hamjamiyat uchun tashabbuslari va amaliy qadamlari xalqaro xavfsizlikni mustahkamlash, barqaror rivojlanish va inson huquqlarini himoya qilish borasida real ahamiyat kasb etayotgan ishonchli sherikka aylanmoqda.

Xulosa o‘rnida ta’kidlash joizki, O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 80-yubiley sessiyasidagi ishtiroki mamlakatimizning ko‘p tomonlama muloqotni mustahkamlash va global tashabbuslarni ilgari surish borasida muhim voqea bo‘ladi. Bu ishtirok, shuningdek, O‘zbekistonning xalqaro g‘oyalar tashabbuskori sifatidagi mavqeini mustahkamlaydi va XXI asrning umumbashariy kun tartibini shakllantirishdagi muhim rolini tasdiqlaydi.

“Dunyo” AA

Ziyoviddin MANSUR,
O‘zbekiston Youvchilar uyushmasi Namangan viloyati bo‘limi rahbari,
Xalq deputatlari viloyat kengashi deputati,
“El-yurt hurmati” ordeni sohibi

Dunyo miqyosidagi global o‘zgarishlar, ayrim mamlakatlardagi talato‘plar, o‘zaro kelishmovchilik va hatto qonli to‘qnashuvlarni keltirib chiqaruvchi mojarolarni kuzatib, bu noxushliklar yechimi haqida aniq bir xulosaga kela olmayotgan ziyolilardan biri sifatida shuni komil ishonch bilan aytamanki, yurtimizda kechayotgan olamshumul yangilanishlar, ertangi taraqqiyot uchun qilinayotgan bunyodkorliklar, xalq farovonligi yo‘lida belgilab berilayotgan dolzarb vazifalarni izchillik bilan amalga oshirayotgan qahramon xalqimizning erishayotgan ulkan yutuqlari har qanday sof vijdonli kishi qalbini cheksiz iftixorga, behad zavqu shavqqa to‘ldiradi, albatta.

Munosabat

NAMANGANDA NAINKI GULLAR, BALKI DILLAR HAM YAYRAB-YASHNAR...

TASHRIFDAN KEYINGI O‘YLAR

Bu yutuqlar o‘z-o‘zidan ro‘y bermayotgani, ularga osonlikcha erishilmayotgani, bular bevosita uzoq istiqbolni, vatanimiz ravnaqi, mehnatkash xalqimiz farovonligini ko‘zlab, tizimli olib borilayotgan islohotlar, ularni qo‘llab-quvvatlayotgan yurtdoshlarimizning hamjihatlik bilan qilayotgan mehnati mahsuli ekani sir emas. Shu bois, yangi O‘zbekistonni bunyod etishdek olijanob maqsad yo‘lida amalga oshirilayotgan islohotlarga har bir fuqaro yelkadosh, kamarbasta bo‘lishi zarur.

Bugungi yangi O‘zbekiston kechagi O‘zbekiston bo‘lmaganidek, bugungi o‘zbek xalqi ham kechagi xalq emas. Bu xalq dunyo hamjamiyatining munosib a’zosi bo‘lgan yangi O‘zbekistonning yangicha dunyoqarashga ega, o‘z mehnati mahsulidan tobora ko‘proq qoniqish hosil qilayotgan, nurli kelajagi, ertangi istiqboliga ishongan, ko‘zlari porlab turgan xalq. Shu bois bo‘lsa kerak, Prezidentimiz taraqqiyparvar xalqimiz bilan, o‘z navbatida, bunyodkor yurtdoshlarimiz davlatimiz rahbari bilan uchrashishni doim intiqlik bilan kutadi.

Tashrif so‘zi lug‘atimizda “tashrif buyurmoq yoki etmoq, qilmoq yoki bormoq, qadam ranjida qilmoq, biror yerga, biror elga, biror kimsa huzuriga qisqa muddatda borish-kelish” tarzida talqin qilinadi. Biroq keyingi yillarda yuksak taraqqiyotga yuz tutayotgan mamlakatimiz, shunga yarasha buyuk evrilishlarga erishayotgan xalqimiz tasavvurida, tafakkurida bu so‘z tamomila yangicha mazmun kasb etayotir. Ya’ni tashrif deganda xalqimiz Prezidentimizning hududlar rivoji, aholi hayoti bilan yaqindan tanishish maqsadida joylarda yurtdoshlarimiz bilan chin dildan olib boradigan jonli va hayajonli uchrashuvlarini tushunishi an’ana tusiga kirdi, desam ayni haqiqatni aytgan bo‘laman.

Prezidentimizning Namangan ahli bilan viloyatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish chora-tadbirlari muhokamasi yuzasidan o‘tkazgan bu galgi jonli va hayajonli muloqoti xalq bilan Prezident yaqinligi, yakdilligi, hamjihatligi namunasi sifatida menda shunday fikrlar paydo bo‘lishiga asos yaratdi. Unda bildirilgan mulohazalar, tahlillar, ilgari surilgan g‘oyalar naqadar xalqning xayolidagi, dilidagi, orzu-o‘ylaridagi fikrlarga hamohang bo‘lgani barcha ishtirokchilarda motivatsiya uyg‘otdi. Ular qalbida shu yurtda yashayotgani, har bir sa’y-harakati xalq manfaatini, yurt taraqqiyotini ko‘zlovchi davlat rahbari borligidan quvonish hissini kuchaytirdi, desam zarracha mubolag‘a qilmagan bo‘laman.

Kuzatishlarim natijalariga tayanib aytamanki, har qanday kishining huzuriga kirib kelgan mehmonda sening uyingga, turish-turmushingga, qisqasi, hayoting hosilasiga qarab kayfiyat paydo bo‘ladi. Shu ma’noda, zalda hozir bo‘lganlarning aksariyati Prezidentimiz mamnunligidan Namangan ahlining zargarona ishlaridan ko‘ngli to‘lganini ilg‘aganday bo‘ldi. Zero, “Har safar bu viloyatga kelganimda, odamlardagi ko‘tarinki kayfiyatni, kattayu kichik doimo harakatda, izlanishda yurganini ko‘rib quvonaman, bugun ham hududdagi ijobiy o‘zgarishlar, yangi ishga tushgan korxonalar bilan tanishib, islohotlarimiz to‘g‘ri yo‘ldan borayotganiga yana bir bor amin bo‘ldim”, dedi davlatimiz rahbari yig‘ilish avvalida.

Bu yoqimli e’tiroflar barcha qatori mening ham ko‘nglimni tog‘day ko‘tardi. Birdan yuragim qatida armon yanglig‘ cho‘kib yotgan

istiqlolimizning ilk yillaridagi “Namangan voqeasi” nomi bilan tarixga muhrlangan qaro kunlar, juda ko‘p mudhish ishlarni qilgan gumashtalar bir yoqda qolib, yemagan somsasiga pul to‘laganlar, uni qo‘ying, bu dog‘lar hadeganda ketavermay, turli oqimlarga mansublikda gumon qilinib, arzimagan sabablar bilan panjaralarga tiqilgan qanchadan qancha aybsiz aybdorlar ko‘z oldimga keldi.

Yaqinlari orasida sudlangani borligi uchun o‘zi yaxshi ko‘radigan ishga kirishi cheklab qo‘yilgan ayrim ziyolilarning sarson-sargardonliklari, shundoqqina qo‘shni Qirg‘iziston va Tojikistondagi quda-andachilik bordi-keldilaridan judoliklar... Eh, bularni gapirgan saring darding oshmaydimi, g‘azabing toshmaydimi?!

Shukrlar bo‘lsinki, bu mash’um holatlar tamomila barham topdi. Odilona siyosat samarasi o‘laroq, o‘sha tumanlar tarqab ketdi, xalqimiz orzu qilgan, intiq kutgan zamonlar keldi. Kim o‘ylagandi axir o‘sha tahlikali Namanganda emin-erkin turmush tarzi shakllanib, so‘nggi sakkiz yilda viloyatga salkam sakkiz milliard dollar xorijiy investitsiya kiritiladi, sakkiz mingga yaqin yangi korxona ishga tushadi, eksport qilinayotgan mahsulotlar turi ikki karra ko‘payib, bir mingdan oshadi, deb?!

O‘sha talato‘plar girdobidagi Namanganda o‘ndan ziyod oliy o‘quv yurti qad rostlab, oliy ma’lumot olishga ishtiyoqmand yoshlarning deyarli barchasiga imkoniyat eshiklari lang ochiladi, bog‘chalar qamrovi mamlakat ko‘rsatkichlaridan ham ortiq bo‘lib, bu yil Namangan shahrining o‘zida besh ming, kelgusi yil o‘n besh ming o‘rinli bog‘cha tashkil qilinadi deb kim tasavvur qila olardi?!

Yaqin o‘tmishimizdagi boshqa millat vakillarining ommaviy ravishda ko‘chib ketishiga qarama-qarshi o‘laroq, ularning aksariyati qaytib kelish ishtiyoqida ekani, joriy yil boshidan buyon viloyatga 1,2 million xorijlik, 2 million mahalliy sayyoh kelgani, turizm salohiyati ikki yuz million dollardan oshgani kimni quvontirmaydi?!

Yaqin-yaqingacha Namangan haqida gap ketganda, birgina gullar shahri degan atama yurardi, xolos. Shu bilan ham quvonchdan og‘zimiz qulog‘imizda edi. O‘shanda Pushkin nomi bilan ataluvchi yagona istirohat bog‘imizda nari borsa viloyat ahli yoki vodiy ahli bayram o‘tkazib, faqat dam olish kunlari yayraganday bo‘lardik. Endi-chi? Qariyb bir oy butun dunyo gul shaydolari Namangan bag‘rida hordiq olmoqda, namanganliklar gul biznesidan jaraq-jaraq daromad topadigan tadbirkorga aylandi.

Gullarimiz san’at darajasidan sanoat, daromad darajasiga, gullar bayrami esa xalqaro gullar festivaliga aylanib turgan bir paytda Prezidentimiz anjumanda endi bu festivalning mahallalardan boshlab joriy etilishi taklifini aytganidagi olqishdan zallar naq larzaga keldi. To‘g‘ri-da, biz ayrim davlatlarga o‘xshab o‘q otmasak, qurol-aslaha sotmasak, bir-birimizga gul sotsak, gul otsak, “Qadamingda gullar ochilsin!”, deya qo‘shiqlar kuylab, milliy qadriyatlarimiz, beqiyos ma’naviyatimiz bilan kayfiyatni sozlasak, qish ko‘ngillarni yozlasak, bizga yetar davlat, millat, xalq bormi?! Shu emasmi axir “Ma’rifatli dunyo” konsepsiyasining namangancha amaliy ifodasi?!

Bugina emas, atigi yetti-sakkiz yil ilgari Popning “Oltin kon” korxonasi sharofati bilan ochilgan o‘sha zamonning eng noyob tovarlari mavjud do‘konda anqoning urug‘iga teng import kostyumlar “podprilavka” sotilib, unga faqat puldor vallomatlargina xaridor bo‘lardi. Mamlakatimizda yaratilgan tadbirkorlik muhiti sharofati o‘laroq, Namanganning qanchadan qancha korxonalarida tayyorlanayotgan kostyumlar oldida ilgarigi xaridorgirlari kasodga uchradi desam ishonavering. Ulardagi eng muhim bitta farq shundaki, xorijdan kelganlari o‘ta qimmat, o‘zimizdan chiqayotganlari esa ancha arzon — hamyonbop bo‘lgani uchun ham xaridorgir bo‘layotgani quvonchli-da!

“O‘zbekistonda ishlab chiqarilgan” brendi ostidagi boshqa mahsulotlarimizning ham import qilinayotgan turdoshlaridan hech qanday qoladigan joyi yo‘q, aksincha, ortiq bo‘lsa ortiqdir. Bular shu yurtning qaysi fuqarosini g‘ururlantirmaydi deysiz?! Eng iftixorli tomoni shundaki, ilgari oyoq kiyimni ham Tomskdan qachon kelarkan deb eski chorig‘ini sudrab yurgan namanganliklar bugun ishlab chiqarayotgan “Amir” tamg‘ali poyabzallarni xorijlik sarmoyadorlar talashib olayotgani afsona emas.

Bugungi kunda viloyat sanoatining uchdan biri, eksportning yarmi to‘qimachilik sohasiga to‘g‘ri kelishi evaziga Namangan tadbirkorlari brend bilan ishlash bo‘yicha respublikada yetakchi o‘rinni egallamoqda. Bu nimadan dalolat?! Bu yaqin-yaqingacha yerto‘lalarda kunni tunlarga ulab, bola-chaqasi bilan halol mehnat qilib, bozorda sotay desa, “formali qaroqchi”lar qo‘liga tushib, ulovidan tushovi qimmatga tushgan chorasiz tadbirkorlarning kuni kelgani dalolati nazarimda.

Shunga mos ravishda Prezidentimiz uchrashuvda mutasaddilarga yil yakuniga ko‘ra London va Varshavada kamida ming kvadrat metrli savdo uyini tashkil etish bo‘yicha ko‘rsatma berdi. Umuman, viloyatda bu yil to‘qimachilik mahsulotlari eksportini 500 ming dollarga yetkazish, ikki yilda bir milliard dollarlik 25 ta yirik loyihani ishga tushirish juda katta natijalardan daraklaydi.

Yig‘ilishda Namangan ahlining ertangi istiqboli borasida juda katta rejalar belgilab berildi. Ularni bajarishga ayni kunlarning o‘zidayoq sidqidildan kirishib ketildiki, bir so‘z bilan aytganda, bular xalqimizning asriy, azaliy orzularini o‘zida mujassam etgan kompleks dastur bo‘lgani, ular ertami-indin, albatta, amalga oshishi quyidagi to‘rtlikka ilhom manbai bo‘ldi:

Gullar bilan esh chiroy ochar,
yurtimizda har qishloq, shahar.
Namanganda nainki gullar,
balki dillar ham yayrab-yashnar.

YO‘LLAR BIZNI YANGI MANZILLARGA ELTAR

Boshlanishi 1-betda

Prezidentimizning Bo‘stonliqqa tashrifi arafasida **maftunkor tog‘lar, yo‘l bo‘yidagi yangi imoratlar, mahobatli inshootlar,** umuman, tabiatni ko‘rib ko‘zim juda quvnadi. 1993-1994-yillar esimda, yo‘llarning ikki chetida sho‘ro merosidan qolgan kulrang, yoqimsiz tusdagi, zerikarli va ko‘rimsiz beton binolar bo‘lardi faqat. Lekin endi men Chimyonga chiqar ekanman, bir soatda manzilimga yetib oldim. Ilgarilari 1,5-2 soatda qiynalib, o‘nqir-cho‘nqirlar bilan borgan bo‘lsak, endi bu yo‘llar ravon, yorug‘. Avtomobilda har 15-20 daqiqada to‘xtab, tog‘ning toza havosi, go‘zal tabiatidan bahramand bo‘ldim. Vatanimizdagi o‘zgarishlarni ko‘rib g‘ururlandim. Chunki bunday o‘zgarishlar, islohotlar o‘zidan o‘zi bo‘layotgani yo‘q. Buning tagida katta mehnat yotibdi.

Bo‘stonliqning menga yoqadigan yana bir jihati, bu yerda o‘zbeklar bilan ahil, jips, bir oila bo‘lib yashaydigan qozoq, qirg‘iz, tojik millatiga mansub vatandoshlarimiz bor. Shuning uchun har doim to‘xtab, ular bilan gaplashaman. Yoz davomida sog‘lig‘imdagi ba’zi muammolar sabab o‘sha yerdagi sihatgohlarda 5-6 kun dam oldim. Menga juda yoqqani — shu davolanish va dam olish mas-kanlarida ishlaydigan ko‘pchilik vatandoshlar aytishdiki: “Biz ilgari Ostonaga borib yoki boshqa davlatlarda terapiya bo‘limlarida ishlardik. Hozirgi hamshira ayollarimiz oldin uyda faqat chorva boqib o‘tirardi. **Bugungi kunda Bo‘stonliqda juda ko‘p infratuzilma yaratildi, dam olish maskanlari barpo etildi.** Shu sabab biz bugun yurtimizga qaytib keldik”.

Masalan, “Fanat” sihatgohida meni davolagan Baxtbek ismli yigit asli qirg‘iz, bir kunda 13-14 odamga xizmat ko‘rsatarkan. Baxtbek ham “Fanat”, ham “Tibet” sihatgohlarida ishlar, bu unga ota kasb bo‘lib, hatto insult bo‘lganlarni ham uyiga borib muolaja qilarkan. “O‘zimning ikkita uyim bor. Yoz kunlari 1 milliongacha, qish kunlari 2 million so‘mdan ijaraga beraman. Oilamiz to‘q, yaxshi yashaydi. Bolalarimiz Bo‘kadagi xususiy maktabga boradi. Ta’lim juda muhim. Biz Bo‘stonlig‘imizga qaytib kelib ishlayotganimizdan juda xursandmiz”, dedi.

Bo‘stonliqdagi o‘zgarishlarni ko‘ring. “Renessans” oromgohida o‘tkazilgan videoselektorda rektorlar bilan Toshkentdan turib ishtirok etganimda menga Prezidentimizning juda ko‘p gaplari yoqdi. Gaplarini tinglar ekanman, ko‘z oldimga o‘sha yerlardagi o‘zgarishlar manzarasi keldi. Xususan, davlatimiz rahbarining **“Biz yuz yillik tizimni ikki yilda olib tashladik, o‘zgartirdik. Bu bizning paxtaga majburan jalb qilinishimiz, paxta qaramligidan ozod bo‘lganimizdir”,** degan gaplari ham ijtimoiy, ham siyosiy jihatdan alohida ahamiyatga ega deb hisoblayman.

To‘g‘ri, paxta milliy boyligimiz, dedik. Uni hatto o‘zimizning gerbimizga ham qo‘ydik, ammo paxta, garchi o‘zi oppoq bo‘lsa-da, bizga qora dog‘lar olib keldi. Paxta tufayli 11 yillik ta’limimiz amalda yetti yilga aylandi. Paxta bizga qullikni, bitta tarmoqqa bog‘liqlikni keltirib

Sherzodxon QUDRATXO‘JA,
O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan jurnalist, siyosiy fanlar doktori, professor

chiqardi. Ancha yillar ana shu qaramlikdan chiqa olmay yashadik.

Bugun esa guvohi bo‘layotganimizdek, paxta yetishtirish va terim jarayoniga ilmiy jihatdan to‘g‘ri yondashilayotgani sababli, kichik maydonga ekilgan ekindan yuqori hosil olinmoqda. O‘zbekistonda bugun 50, 60, 70 sentner hosil olish reallikka aylandi.

Yana bir muhim jihatga to‘xtalish lozim. **Bu mamlakat iqtisodiyoti so‘nggi sakkiz yilda ikki barobar o‘sganidir. Yalpi ichki mahsulot hajmi yil oxirigacha 130 milliard dollar bo‘lishi, jon boshiga daromad esa 3500 dollarga yetishi kutilmoqda. 2018-yilda daromad 1800 dollarni, 2016-yil yangi O‘zbekiston islohotlari boshlanmasidan avval esa kishi boshiga bor-yo‘g‘i 1200 dollarni tashkil etardi. Bu ko‘rsatkichlar ham mavhum edi. O‘tgan 8-yilda esa mamlakatimizga 130 milliard dollar xorijiy investitsiya kiritildi.**

Yangi O‘zbekistonning 6,5 millionlik kelajak quvvati

1-oktyabr — O‘qituvchi va murabbiylar kuni munosabati bilan tashkil etilgan uchrashuvda Prezidentimiz bir gapni aytdi: **“Oltin zaxiramiz 50 milliard dollardan oshdi. Endi orqaga qaramanglar, ustozlar! Oldilaringda yangi O‘zbekiston turibdi. Ortingizda Prezidentingiz turibdi. Bizga bu 50 milliard dollar yangi g‘oyalar uchun, yangi tafakkur uchun, yangi loyihalar uchun zamin va dalda bo‘ladi”**, dedi. Ushbu iqtisodiy zamin asosida so‘nggi sakkiz yilda ta’lim va ilm-fan sohasiga xarajatlar 6 karra oshirilib, 378 trillion so‘m ajratilgani katta ahamiyatga ega bo‘lmoqda.

Binobarin, amerikalik Nobel mukofoti sovrindori Jeyms Xekmanning ta’limga sarmoya kiritish bo‘yicha tadqiqotlaridan shuni bilish mumkinki, maktabgacha ta’limga sarmoya kiritish inson taraqqiyoti uchun eng samaralisi hisoblanadi. Unga yo‘naltirilgan har bir dollar 40-yildan keyin 16 barobar ko‘p bo‘lib qaytishi amerikalik olimlar tomonidan tasdiqlangan. Yurtimizda ham aynan **maktabgacha va maktab ta’limiga kiritilayotgan sarmoya ertangi kelajak uchun muhim investitsiyadir.**

Jahon banki ma’lumotlariga tayanadigan bo‘lsak, ta’lim, jumladan, o‘rta va oliy ta’limga yo‘naltirilgan har bir dollar mamlakat iqtisodiyotiga 9 dollargacha daromad keltiradi. Bu 9 barobar ko‘p foyda, degani.

Prezidentimiz ta’lim sifatini oshirish, ustoz va murabbiylarning mehnat va yashash sharoitini yaxshilash islohotlarning eng ustuvor yo‘nalishi bo‘lib qolishini ta’kidlab, **“Yangi O‘zbekistonda eng muhim soha — ta’lim, eng hurmatli insonlar — o‘qituvchi va murabbiylardir!”** dedi.

4000 dan ortiq mahallamizda 2016-yilga qadar bog‘chalar yo‘q, qamrov bor-yo‘g‘i 27 foiz edi. Bugun bog‘chalar soni 38 mingdan oshdi, bu esa ko‘rsatkich qariyb 80 foizga chiqishiga zamin yaratdi. Pedagog sifatida aytaman, O‘zbekistonda eng katta qatlam aynan maktabgacha yoshdagi avlod, bog‘chaga chiqadigan bolalarni tashkil etadi.

Ertalab ko‘chalar bolalarimizga to‘ladi. Hammasi chiroyli kiyingan, qo‘llarida sumkasi, maktab sari oshiqadi. Shu yoshlarimizdan iborat 6,5 millionlik kelajak quvvati bor O‘zbekistonda. Bu yil 400 ming bola o‘qishni bitirgan bo‘lsa, birinchi sinfga yanada ko‘proq, ya’ni 720 ming bola qabul qilindi. Yaqin ikki-uch yilda har yili bir millionga yaqin bola maktabga chiqa boshlasa ajab emas. Tobora o‘sib borayotgan demografiya tufayli maktablarga ehtiyoj ham ortib bormoqda. **So‘nggi sakkiz yilda 500 ta maktab qurildi va mavjudlari kengaytirildi.**

Bog‘chadagi rahbar va pedagoglar oyligi qariyb 2 karra oshdi. Xususiy bog‘chalardagi tarbiyachilar oyligi va bola xarajatining bir qismi byudjetdan qoplab beriladigan tizim joriy etiladigan bo‘ldi. Endi davlat va xususiy bog‘cha tarbiyachilarini ishdan ajralmagan holda oliy ta’limda o‘qitish yo‘lga qo‘yiladi.

Yana bir ajoyib yangilik, endilikda xuddi Prezident maktablari kabi har bir hududda **“Yangi avlod” bog‘chalari** tashkil qilinib, tarbiyachilar ilg‘or pedagogik texnologiyalarni o‘rganadi.

Bir yil ichida 100 ta texnikumda Germaniya, Shveysariya, Xitoy, Janubiy Koreya, Buyuk Britaniya kabi davlatlarning ta’lim tashkilotlari bilan hamkorlik yo‘lga qo‘yilib, ularning eng ilg‘or kasbiy ta’lim dasturlari joriy qilinadi.

Kelasi yili sanoatda qariyb 45 milliard dollarlik 456 ta yirik loyiha boshlanadi. Endi texnikumlarda “investor — tarmoq — texnikum” zanjiri asosida har bir loyiha bo‘yicha dual ta’lim yo‘lga qo‘yiladi.

So‘nggi yillarda, ayniqsa, oliy ta’lim qamrovi jadal oshdi. Oliy o‘quv muassasalari soni 77 tadan 202 taga, jami talabalar soni 250 mingdan 1,5 millionga yetdi.

Davlatimiz rahbari tashabbusiga muvofiq, yoshlarimizni Amerikaning “Pechak ligasi” universitetlariga tayyorlash yo‘lga qo‘yilmoqda. Buning uchun milliy dastur qabul qilindi. Joriy yil dastlab 1,5 ming o‘quvchi saralab olindi. Ularga Prezident va ixtisoslashtirilgan maktablardan 208 maslahatchi biriktirildi.

Ilgari gazni 2300 metrdan zo‘rg‘a qazib olardik, bugungi kunda ta’limdagi yangiliklar, izlanishlar tufayli nafaqat paxtani kam yerga ekib, yuqori hosil olyapmiz, bundan tashqari, bu yil sanoatimiz tarixida birinchi marta Ustyurtda 6,5 ming metr yer qa’rini burg‘ilash orqali juda katta gaz zaxirasi topildi.

Yangi O‘zbekiston ruhi

Bugungi kunda uranni ikki barobar ko‘p, oltinni 118 tonna ishlab chiqaryapmiz. **Bu hammasi ta’lim, bilim, ilm orqali qilinyapti!**

Yangi umidlar uyg‘otgan tarixiy tashrif

“Yo‘llar bizni yangi manzillarga yetaklar” qissasi davom etadi. Endi Namanganga yo‘l oldik. Namangan… Vodiydan kezib o‘tiladi. Chiroyli manzillarni ko‘rasiz. Bir tarafda Andijon, boshqa tarafda Farg‘ona.

Ilgarigi paytlar viloyatlarimizning yuzi bir xildek tuylardi. Hammasida paxta, g‘alla rejasi bor edi, hammasi bitta taroq bilan taralgandi. Viloyatlarimizni 25 yil davomida kashf qilmadik. Chorak asr ular o‘zining “izyuminkasi”ni, mag‘zini topmadi, o‘zini yo‘naltira olmadi.

Namanganga 25 yil mobaynida muayyan muammolar ichidagi qoloq hudud sifatida qaralgan. Bu o‘lkaning odamlariga ishonch berilmagan. Bugun esa **Namangan deganda o‘rta va kichik biznes rivojlangan,** milliard-milliard dollarlik mahsulot ishlab chiqaradigan, to‘qimachilik rivojlangan hudud ko‘z oldimizda gavdalanadi. Viloyatda kasanachilik, hunarmandlik ham jadal rivojlanmoqda. Namanganliklar juda mehnatkash ekanini ularning astoydil do‘ppi tikishidan ham tasavvur qilish mumkin. Namangan chevarlari birgina igna bilan shunday bejirim, betakror do‘ppilarni yaratadiki, qoyil qolmay iloj yo‘q.

Chust dehqonlarini aytmaysizmi? Ularning dong‘i butun dunyoga taralgan. O‘zbekistonda bir qarich yer bekor yotgan bo‘lsa, o‘sha yerda chustliklarni ko‘rasiz. Biz bugun **Namangan deganda O‘zbekistonning siyosiy jug‘rofiyasida tadbirkorlik, g‘ayratchanlik jo‘sh urgan hududni ko‘ramiz.**

Masalan, Samarqand, Buxoro, Xiva deganda turizm markazlarini tushunamiz. U hududlarda bo‘layotgan bunyodkorliklar, mehmonxonalar, infratuzilma, 30 tilda gaplashuvchi mehmondo‘st odamlarni ko‘ramiz.

Bugun O‘zbekistonning xaritasi bamisoli adrasga o‘xshaydi

Adras bir matoda to‘qilgan turfa kamalak ranglaridan iborat go‘zal mato. O‘zbekistonimiz ham shunday. Shuningdek, bu rang-baranglik, o‘ziga xoslikka erishish yo‘lida “propiska” bekor bo‘lgani ham bir ijobiy qadam bo‘ldi. **“Toshkent propiskasi” muammosi yechilgandan keyin** viloyatlarimiz ham ochildi. Hamma bir-biriga bag‘rini ochdi. Yana qo‘shimchasiga 2016-yildan keyin O‘zbekistonning hamma viloyatlariga taraqqiyot kuchi bir xilda berildi. Faqat markaz emas, hamma hudud — shahar, chekka joylarga ham rivojlanish, yangilanish, o‘zgarish shabbodasi kirib bordi.

Prezidentimizning fenomenlaridan biri — 2016-yilda siyosiy hokimiyatga kelganidan so‘ng **har bir viloyatga o‘zining nuri, fayzini** ochib berish uchun “yo‘l xarita”larini qildirdi. Har bir viloyatga manzilli yondashdi. Har bir viloyatning o‘ziga xos, o‘ziga mos jihatini olib, uni dunyoga olib chiqishga yo‘l ko‘rsatdi. Namanganning bugungi yutuqlari zamirida ham shu yotadi.

Norin tumanining hududi katta, ammo rivojlanishdan sal ortda bo‘lib kelgan. Bu safar ham Namanganga tashrif chog‘ida Prezidentimiz faqat chiroyli manzillarga emas, aynan og‘ir mahallaga bordi. Bu esa, yuqorida aytib o‘tganimizdek, hamma joyni barobar taraqqiy ettirishga zamin yaratadi.

Yangi O‘zbekistonda rivojlanish jarayoni jadal davom etyapti. Bizda hamma masala hal, barchasi muhayyo emas. Hali ko‘p ish qilinishi va shunday og‘riqli nuqtalarga tezroq tashxis qo‘yilishi kerak.

Shunday joyga borib, ko‘rib, xalq bilan gap-lashib, o‘sha yerda shtab tuzilishi, shaxsan hokimning o‘zi mas’ul bo‘lishi odamlarga ishonch berdi, muammolarga malham bo‘ldi. O‘ylaymanki, bunday joylar hali O‘zbekistonimizda ko‘p. Buni yashirish noto‘g‘ri bo‘ladi. Biz dasturlar tuzib, albatta, bunday bunyodkorliklarni barcha hudud uchun tenglikka olib kelamiz.

Maqola chop etilish arafasida Norin tumanidagi sobiq Sho‘rariq mahallasida turib, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti matbuot kotibi Sherzod Asadovning tashrifga oid bir gapi esimga tushdi: “Yangi O‘zbekistonda bo‘layotgan hamma o‘zgarishlardan Prezidentimiz xabardor, albatta. Har bir joyning yutuq va kamchiliklarini biladi va mana shunday og‘ir nuqtalar, hududlar davlatimiz rahbarining e’tiboridan chetda qolmaydi. Sho‘rariqqa kutilmagan tashrif boshqa hokimlarga ham o‘ziga xos mujda berishi kerak”.

Mahallani ko‘rib, juda xursand bo‘ldim. Prezidentimiz taklifi bilan bu joy endi Yangi Namangan mahallasi bo‘ldi. Kosonsoy bilan Norin tumanlari Prezidentimizning nazorati, e’tiboridagi tumanlar bo‘ladi.

Sho‘rariqdagi odamlar bilan uchrashganimda “Prezidentimiz bilan ko‘rishganimizdan keyin biz zo‘r hayajon, xursandchiligimizdan ertalabgacha uxlolmadik. **Yurtboshimizning kelishi bizda yangi umidlarni uyg‘otdi.** Shunday Prezidentimiz borligidan judayam mag‘rurlandik”, deb biz bilan his-tuyg‘ularini o‘rtoqlashdi.

Bu yerda tez orada yangi bog‘cha, pochta binosi, yangi majmualar qad rostlaydi, shu tariqa Yangi Namangan shaharchasi paydo bo‘ladi.

Har bir viloyatdagi bunday og‘riqli nuqtalar shu yo‘sinda kamayaversa, xalqimizning yashash darajasi o‘zgaradi, ularning islohotlardagi faollashuvi ortadi...

Va bu gapning isbotini birdaniga topdimki, kechaning o‘zida bu joydagi xarobalar yer bilan yakson qilinib, buzib tashlanibdi. Yaqin orada bu yerda besh qavatli zamonaviy majmua, mahalla idorasi, bolalarga ingliz tilini, kompyuter ilmini o‘rgatish, xotin-qizlar qo‘mitasi, zamonaviy biznes markazi ishga tushadi.

Meni hayratda qoldirgani — xalqimizning Prezidentimizga samimiy munosabati. Shu o‘rinda davlatimiz rahbarining xalq bilan kechagi samimiy muloqotiga qaytsak. Oddiy odamlar edi ular, buni ularning kiyimi, gap-so‘zlaridan ham ko‘rish mumkin. Bu uchrashuv, ba’zi ig‘vogarlar aytganiday, tayyorlanmagan edi. **Bu oddiy xalqning o‘z Prezidentiga mehr-muhabbatini, u kishini qanchalik yaxshi ko‘rishini, samimiy va iliq munosabatini ko‘rsatdi.** Bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlarda o‘sha videoni 100 milliondan oshiq odam ko‘rdi.

Kattayu kichik barchaning yuzida bizga, o‘zbeklarga xos bag‘rikenglik, o‘z Prezidentiga muhabbati aks etgandi. Bunday tuyg‘ularni berkitib, hissiyotlarni yashirib bo‘lmaydi. Bu lahzalar hech qayerda va hech qaysi pulga sotib olinmaydi. Biz shunday millatmiz!

Shukuh

DUNYO HUNARMANDLARI QO‘QONDA JAM BO‘LDI

Sherzod QORABOYEV olgan suratlar.

Boshlanishi 1-betda

Prezidentimiz tabrigida ta’kidlanganidek, **el-yurtimizning ko‘p asrlar davomida shakllangan boy madaniy merosi, milliy an’ana va qadriyatlarining ajralmas qismi bo‘lgan, o‘tmish va kelajak o‘rtasida bamisoli ma’naviy ko‘prik vazifasini bajarib kelayotgan hunarmandchilik sohasi rivojiga mamlakatimizda katta e’tibor berilmoqda. Natijada bu yo‘nalish iqtisodiyotimizning muhim tarmoqlaridan biriga aylanib bormoqda. Buning tasdig‘ini hunarmandlar, qo‘ligul ustalar, dizayner va yosh ijodkorlar uchun katta imkoniyatlar yaratilayotgani, ularning mahsulotlarini jahon bozoriga olib chiqish va milliy brend sifatida tanitish yo‘lida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilayotganida ko‘rish mumkin.**

Qo‘qon qadimdan hunarmandlik rivojlangan madaniy markazlardan biri bo‘lgan. Hozir ham bu yerda hunarmandlikning yog‘och o‘ymakorligi, qog‘ozgarlik, chilangarlik, zargarlik, pichoqchilik kabi ko‘plab turlari ravnaq topmoqda. Bu nafaqat madaniy merosimizni keng targ‘ib etishda, balki ijtimoiy-iqtisodiy masalalarga ham yechim bo‘lyapti. Birgina “Ustoz va shogird” an’anasi asosida 118 ming nafar yosh, jumladan, kam ta’minlangan, vaqtincha ishsiz, nogironligi bo‘lgan fuqarolarning bandligi ta’minlangani soha rivoji ijtimoiy masalalarni hal etishda ham muhim ahamiyat kasb etib borayotganini ko‘rsatadi.

Nufuzli tadbir o‘tkazilishi natijasida keyingi yillarda Qo‘qon shahriga sayyohlar oqimi 10 barobar ko‘paydi. Shunga munosib tarzda hunarmandlar soni 3,5 barobar, mehmonxona, oilaviy xostellar soni 4-5 barobar oshgan.

Xalqaro hunarmandchilik festivalini yuqori saviyada o‘tkazish uchun puxta tayyorgarlik ko‘rildi. Tarixiy obidalarni ta’mirlash va restavratsiya qilish, ularga olib boradigan yo‘llar, tungi yoritish tizimlari, suv, oqova, elektr tizimlarini yaxshilash bilan bog‘liq keng hajmdagi ishlar bajarildi. Turizm obyektlariga eltuvchi yo‘nalishlar jozibadorligini oshirish maqsadida qo‘shimcha illyuminatsiyalar o‘rnatildi. Qo‘qon hunarmandchiligi an’analariga ixtisoslashgan yangi ustaxona, mahalla va xonadonlarda zarur sharoitlar yaratildi. Zamonaviy xizmat ko‘rsatish tarmoqlari ishga tushirildi. Qo‘qonning boy madaniy yodgorliklari, qutlug‘ qadamjolar bo‘ylab sayohatlar uyushtirish, ichki va xalqaro turizm imkoniyatlarini kengaytirish uchun istiqbolli loyihalarga alohida e’tibor qaratildi.

— Festival doirasida Qo‘qonda “Hunarmandchilik va xalq amaliy san’atini rivoj-lantirish istiqbollari”, Rishton tumanidagi Xalqaro kulollar markazida “An’anaviy kulolchilikni saqlash va rivojlantirish: muammo va yechimlar” mavzularida xalqaro konferensiyalar o‘tkaziladi, — deydi respublika “Hunarmand” uyushmasi raisi Rasuljon Mirzaahmedov. — Shuningdek, zamonaviy o‘zbek milliy hunarmandchiligi va amaliy san’ati hamda hunarmandlar ijodiga bag‘ishlangan “O‘zbekiston hunarmandchiligi durdonalari” kitob-albomi taqdimoti o‘tkazilmoqda. Bundan tashqari, kulollik mahsulotlari ko‘rgazma savdosi, mohir kulollar yurti Rishton tumani bo‘ylab sayohatlar reja qilingan.

Xalqaro festival bilan bog‘liq qiziqarli tadbirlar shaharning bosh maydoni — Xudoyorxon o‘rdasi, unga tutash madaniyat va istirohat bog‘ida bo‘lib o‘tmoqda. Bu yerda ko‘hna Qo‘qonning ramziy darvozasi tiklandi. Hunarmandlar marshi bo‘lib o‘tdi. Festival dasturidan o‘rin olgan qator qiziqarli tadbirlar, mahsulotlar ko‘rgazmasi, ko‘rik-tanlov va mahorat mashg‘ulotlari kechaga o‘zgacha ko‘tarinkilik, ulug‘vorlik bag‘ishlamoqda. Mahalliy hunarmandlar kulollik, zargarlik, miskarlik, milliy chok ishi va to‘qimachilik kabi yo‘nalishlarda mahsulotlarini namoyish etmoqda.

Bu ularga milliy mahsulotlarimizni xalqaro miqyosda targ‘ib etish imkonini beryapti. Tajribali ustalar ishtirokidagi amaliy mashg‘ulot, mahorat darslari, yosh kulollar uchun ijodiy dasturlar, milliy an’anaviy tomoshalar festivalga o‘zgacha ko‘rk-tarovat bag‘ishlamoqda.

— O‘zbekistonga ilk bor kelishim, — deydi turkmanistonlik hunarmand Oyjamol Rejapova. — Mamlakatingizda milliy hunarmandchilik an’analarini rivojlantirish, sohani qo‘llab-quvvatlash borasidagi ishlar behad quvontirdi. Ayniqsa, ip matolardan ishlangan buyumlar, ko‘hna Rishton kulolligi o‘ziga xos rang-tasvirlarga boyligi bilan e’tiborimni tortdi. Biz ular bilan hamkorlikda ishlash, tajriba almashish, savdo-sotiq aloqalarini yo‘lga qo‘ymoqchimiz. Hammasi ajoyib, juda go‘zal. Bunday xalqaro tadbirni tashkil qilgan tashabbuskorlarga rahmat. O‘zbek va turkman hunarmandlik an’analari bir-biriga o‘xshaydi. Festivalda juda ko‘p hunarmandlar bilan tanishib, tajriba almashdik. O‘zbek milliy ipak matolaridan tayyorlangan libos va sovg‘abop buyumlar xarid qildim.

— Festival menda juda katta taassurot uyg‘otdi, — deydi Iordaniyadan kelgan hunarmand Muhammadyusuf Rashid Tabanja. — O‘zbek milliy matolari juda go‘zal va betakror. Avval kelganimda o‘zim xarid qilgan matolardan turli liboslar tayyorladim. Bugungi festivalda Iordaniya hunarmandligiga xos bo‘lgan, zaytun daraxtidan tayyorlangan turli sovg‘abop buyumlarim bilan qatnashyapman. Menga xalqingizning samimiyligi, mehmondo‘stligi, mazali taomlari juda yoqdi.

Mehmonlar so‘zlariga quloq tutar ekansiz, beixtiyor qalbingiz faxrga to‘ladi. Ularga yurtimiz, odamlarimiz yoqqani, bu yerga kelganidan mamnun ekani kishini quvontiradi. Shu kayfiyatda yana ishtirokchilarga yuzlanamiz.

— O‘ttiz yildan buyon hunarmandchilik bilan shug‘ullanaman, — deydi Qoraqalpog‘is-tonning Shumanay tumanidan kelgan Oyjamol Novbetova. — Asosan, tuya va qo‘y junidan shifobaxsh xususiyatga ega paypoq, nimcha, ko‘rpa singari o‘nga yaqin mahsulot tayyorlaymiz. Mahsulotlarimiz nafaqat ichki, balki tashqi bozorda ham xaridorlariga ega. Avstraliyalik hunarmandlar bilan yaqin hamkorlikni yo‘lga qo‘yganmiz. Ular Shumanayga kelib, xomashyo tayyorlash, qayta ishlash va tayyor mahsulot ishlab chiqarish bilan bog‘liq jarayon bilan yaqindan tanishib, tajribamizni o‘rganyapti. Mahsulotlarimizdan xarid qilyapti. Hamkorlik shartnomasiga ko‘ra, kelgusi yil Avstraliyada o‘z ustaxonamizni ochamiz. Shu maqsadda uyda o‘tirgan, ijtimoiy himoyaga muhtoj 35 nafar xotin-qizni kasanachilik asosida ish bilan ta’minladik. Festival juda ajoyib o‘tyapti, unda yana yangi hamkorlar topilishiga ishonaman.

Festival nafaqat mahalliy, balki xorijlik hunarmandlar uchun ham katta bozor vazifasini o‘tamoqda. Boshqirdistondan kelgan mehmonimiz ana shunday imkoniyat va sharoitdan xursand bo‘ldi.

— Hunarmandchilik festivalida birinchi marta ishtirok etyapman, — deydi Ufa shahrilik hunarmand Ruslan Kamolov. — O‘n yildan buyon yog‘och buyumlarga moybo‘yoq bilan turli suratlar chizaman. Bu yerga o‘ndan ortiq janrdagi suratlar, sovg‘abop buyumlar olib keldim. Festivalga katta hozirlik ko‘rilibdi. Qo‘qon haqida eshitgandik, bugun bu ko‘hna shaharning tilsimotlari bilan yaqindan tanishdim.

— Bunday nufuzli festivalga kelib, xalqlarning zavq-shavqi, yaratuvchilik kayfiyatini ko‘rib ruhlandim, — deydi Qirg‘izistonning Bishkek shahridan kelgan hunarmand Nurzat Jonibek qizi. — O‘zim qo‘y junidan tayyorlagan turfa buyumlar olib keldim. Bugunga qadar 28 dan ortiq mamlakatda ko‘rgazma tashkil etdim. Tajribamdan kelib chiqib aytishim mumkinki, hunarmandchilik festivali katta uyushqoqlik, hamjihatlikda tashkil etilgan. Unda namoyish etilayotgan har bir mahsulotni betakror san’at asariga qiyoslash mumkin.

Festival doirasida o‘ymakor ustalar va panjarakori san’atlari haqida ko‘rgazma va hujjatli filmlar namoyishi bo‘lib o‘tdi. Qo‘qon xalqaro hunarmandlar muzeyiga jahon hunarmandchiligi rivojiga katta hissa qo‘shgan Gadda xonim Kaddumiy nomi berildi. Xalq sayillari, qo‘g‘irchoqbozlar, dorbozlar va folklor jamoalari hamda viloyatlar madaniyat boshqarmalari tomonidan tayyorlangan konsert dasturlari festivalga o‘zgacha shukuh, fayz kasb etmoqda.

Rasuljon KAMOLOV,
“Yangi O‘zbekiston”muxbiri

Kun mavzusi

ASOSIY STAVKA O‘ZGARISHSIZ QOLDI

BUNGA YUQORI INFLYATSIYA DARAJASI SABABMI?

Kundalik faoliyatimizning katta qismi moliyaviy masalalar bilan bog‘liq. Deyarli har kuni do‘konga kirib, xarid qilishdan tortib, turli xizmatlar uchun pul to‘lash, kredit olish, valyuta almashtirish kabi harakatlar ko‘pchiligimiz uchun odatiy amaliyotga aylangan. Shuning uchun ham har kuni bozordagi narx-navo tebranishi, kredit foizlari, valyuta kursi bilan qiziqib, internet orqali xabarlarni kuzatib boramiz.

Bu, bir tomondan, aholining turmush sharoiti yaxshilanib, moliyaviy xizmatlarga talab oshib borayotgani bilan bog‘liq bo‘lsa, boshqa tomondan, iqtisodiy savodxonlik ortayotganidan dalolat. Avvallari faqat soha vakillari tushungan atamalarni bugun oddiy aholi ham amaliyotda faol qo‘llab, tahlil qilyapti.

Joriy yil 11-sentyabr kuni Markaziy bank boshqaruvining navbatdagi yig‘ilishida asosiy stavkani yillik 14 foiz darajasida saqlab qolish to‘g‘risida qaror qabul qilindi. Ushbu xabar e’lon qilingach, yurtdoshlarimiz fikr-mulohazalarini bildira boshladi. Ba’zilar asosiy stavkaning o‘zgarishsiz qolgani ijobiy holat ekani, endi kredit foizlari ham oshmasligini yozdi. Boshqalar esa yillik stavka 14 foizdan tushirilishi ma’qulroq bo‘lib, bu bevosita kredit foizlari pasayishiga olib kelishini ta’kidlagan.

Gap shundaki, mamlakatimiz moliya tizimida Markaziy bank asosiy stavkasi degan tushuncha bor. Asosiy stavka Markaziy bank tomonidan belgilanadi. Masalan, yuqori inflyatsiya xavfi tug‘ilganda Markaziy bank asosiy stavkani oshiradi yoki aksincha inflyatsiya targetdan pasaysa asosiy stavkani pasaytiradi.

Asosiy stavkani belgilash orqali Markaziy bank pul bozoriga pul-kredit siyosat maqsadlariga erishish uchun qaysi stavka darajasi maqbul hisoblanishini bildiradi. Bozor stavkalarini Markaziy bank belgilagan darajaga yaqinlashtirish uchun o‘z operatsiyalarini asosiy stavkaga bog‘laydi.

Masalan, tijorat banklari ajratadigan imtiyozli kreditlar foiz stavkasi bevosita asosiy stavkaga bog‘liq. Ya’ni stavka tushishi yoki ko‘tarilishi imtiyozli kreditlar foizlarining pasayishi yoki oshishiga ta’sir qiladi. Shuningdek, tijoriy kreditlar foizlari ham Markaziy bankning foiz stavkasidan kelib chiqib belgilanadi.

Markaziy bank belgilaydigan asosiy stavka darajasi muayyan vaqtda qator omillar hisobiga o‘zgarib turadi. Xususan, asosiy stavka 2017-yil iyun oyi oxirida — valyuta liberallashuviga tayyorgarlik doirasida 9 foizdan 14 foizgacha ko‘tarilgan va 2024-yil iyuligicha 14-17 foiz oralig‘ida shakllangan. 2024-yil iyulida esa ushbu stavka 0,5 foiz pasaytirilib, yillik 13,5 foiz darajasida belgilandi. Keyinroq yana 14 foizga ko‘tarildi.

> **Markaziy bank boshqaruvi qarori bilan ana shu asosiy stavka 2025-yil 11-sentabrda 14 foiz darajasida o‘zgarishsiz saqlab qolindi va bu bir qancha omillar bilan izohlanmoqda. Xususan, yurtimizdagi iqtisodiy faollikning yuqori shakllanayotganligi tufayli inflyatsiya bosimi va narxlar oshishi bo‘yicha xatarlar saqlanib qolayotgani, joriy yilda inflyatsiya pasayishi kutilganidan sekin kechayotgani asosiy sabablardan biri sifatida keltirilmoqda.**

— Muhokamalardan so‘ng asosiy stavkani 14 foiz darajasida saqlab qolishga qaror qildik, — deydi Markaziy bank raisi Timur Ishmetov. — Buning bir qancha sababi bor. Avvalo, xalqaro savdodagi cheklovlar va boshqa omillar tufayli yurtimizda inflyatsiya pasayishi kutilganidan sekin kechmoqda. Ikkinchidan, milliy iqtisodiyotda yuqori iste’mol talabi va investitsiyaviy faollik saqlanib qolyapti. Joriy yil ikkinchi choragida shakllangan iqtisodiy faollik va iste’mol talabining yuqori sur’ati narxlarga oshiruvchi ta’sirni davom ettirdi. So‘nggi oylarda mavsumiy omillar hamda almashuv kursi barqarorlashuvi hisobiga aholi va tadbirkorlar kutilmalarida pasayish tendensiyasi kuzatilgan. Shunday bo‘lsa-da, mazkur kutilmalar umumiy inflyatsiya darajasidan yuqori bo‘lib qolmoqda. Xususan, avgust yakunlari bo‘yicha aholi kutilmalari 12,2 foiz, tadbirkorlar kutilmalari 11,8 foizni tashkil etdi.

Qat’iy moliyaviy sharoitlar va mehnat bozorlarining muvozanatlashishi ta’sirida global inflyatsiya pasayishi tendensiyasi 2025-yilning ikkinchi yarmida ham davom etishi kutilmoqda. Qolaversa, jahonda oziq-ovqat mahsulotlari narxi oshayotgani hamda savdodagi asosiy hamkor davlatlar inflyatsiya darajasining target ko‘rsatkichidan yuqori shakllangani kelgusida import inflyatsiyasi kuchayishiga olib kelishi mumkin. Ushbu sharoitda joriy yil yakunida yurtimizda inflyatsiya darajasi 8,7 foiz atrofida shakllanishi prognoz qilinyapti.

Mutaxassislarning ta’kidlashicha, joriy yil birinchi yarmida mamlakatimizda iqtisodiy faollik yuqori sur’atda davom etdi. Xususan, iqtisodiy o‘sish 7,2 foizgacha tezlashib, bunga xizmatlar sohasi asosiy hissa qo‘shdi. Shuningdek, sanoat, qurilish, qishloq xo‘jaligi tarmoqlarida ham sezilarli o‘sish qayd etildi. Asosiy kapitalga yo‘naltirilgan investitsiyalar qiymati esa 270 trillion so‘mga yetib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 5,5 foiz o‘sgan. Boshqa turdagi investitsiyalar hajmida ham ko‘rsatkich ancha baland. Boshqa tomondan, yalpi talabning yuqori darajada saqlanishi sharoitida energiya narxi oshishining ikkilamchi ta’siri xizmatlar inflyatsiyasining yuqori shakllanishida namoyon bo‘lyapti.

Ana shu omillarni inobatga olib, xususan, milliy iqtisodiyotdagi inflyatsiya bosimini kamaytirish va o‘rta muddatli istiqbolda narxlar barqarorligini ta’minlash maqsadida Markaziy bank boshqaruvi asosiy stavkani joriy 14 foiz darajasida saqlab qolish to‘g‘risida qaror qabul qildi.

Belgilangan targetga qachon yetkaziladi?

Inflyatsiya — tovar va xizmatlar umumiy narxining o‘sishini anglatadigan termin. Ko‘p odamlar buni narxlarning oshishi va oylik maoshga mutanosib emasligi sifatida tushunadi. Inflyatsiya yuqori bo‘lishi iqtisodiyotdagi pul qiymatining pasayishiga olib keladi. Inflyatsiya milliy valyutaning xarid qobiliyatini kamaytirib, kundalik hayotimizga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.

Markaziy bank ma’lumotlariga ko‘ra, joriy yil avgustida umumiy inflyatsiya iyuldagiga nisbatan bir oz pasayib, yillik hisobda 8,8 foizni tashkil etdi. Oziq-ovqat va nooziq-ovqat mahsulotlar narxi o‘sishining sekinlashishi hisobiga bazaviy inflyatsiya 7,6 foizgacha pasaygan.

Ammo bu belgilangan doimiy maqsad (target) darajasida emas. Ya’ni Prezidentimizning 2019-yildagi tegishli farmonida yurtimizda inflyatsiya bo‘yicha target 5 foiz bo‘lishi, bunga 2023-yilda erishilishi belgilangandi. Biroq ayrim sabablarga ko‘ra inflyatsiya bo‘yicha qo‘yilgan targetga erishish muddati bir necha marotaba keyinga surildi.

Jumladan, 2020-yil pandemiyada davlatlar tomonidan kiritilgan turli cheklovlar va 2022-yildagi xalqaro maydonda yuzaga kelgan geosiyosiy vaziyatdan so‘ng butun dunyoda inflyatsiyaning yuqori oshishi kuzatilib, joriy holatlar O‘zbekistonga ham o‘z ta’sirini o‘tkazmay qolmadi va inflyatsiyaning avvalgi prognoz ko‘rsatkichlaridan yuqori shakllanishiga sabab bo‘ldi. So‘nggi prognozlarga ko‘ra, inflyatsiya bo‘yicha maqsadga 2027-yilda erishish kutilmoqda.

— Prognozimiz ichki va tashqi omillarga asoslanadi. Lekin hayotda ushbu omillar o‘zgarsa, prognoz ham o‘zgarishi tabiiy, — deydi Markaziy bank raisi Timur Ishmetov. — Ya’ni maqsadimizga yetishda dunyodagi geosiyosiy vaziyat ham ta’sirini o‘tkazmoqda. Bunday sharoitda prognoz qilish juda qiyin. Shunga qaramay, tashqi faktorlarga moslashib, siyosat yurityapmiz. Turli tovarlar bozorini erkinlashtirish, ayrim tovarlar bo‘yicha raqobatni kuchaytirish, ishlab chiqarish va import konsentratsiyasini kamaytirish bo‘yicha muayyan ishlar qilinyapti. Joriy yilda yurtimizda ko‘p yo‘nalish bo‘yicha inflyatsiya ko‘rsatkichi pasaya boshladi. Lekin bu o‘ylaganimizdan kechroq yuz bermoqda. Ya’ni ijobiy natija bor, lekin yetarli emas. Targetga yetishimiz 2027-yil oxiriga mo‘ljallangan. Shu yil oxiriga borib inflyatsiya darajasi 8,7 foiz bo‘lishi kutilayotganini hisobga olsak, bir yilda 5 foiz tushirish qiyin masala. Hozircha 2027-yilni prognoz qilyapmiz.

Ayni paytda esa umumiy inflyatsiyaning barqaror pasayish trayektoriyasiga o‘tishi vaqt talab etadi. Narxlarni oshiruvchi bosim kelgusi oylardan kutilganidan ko‘ra kuchayishi bo‘yicha ehtimollar va asoslar yuzaga kelgan taqdirda pul-kredit sharoiti qayta ko‘rib chiqilishi mumkin.

Valyuta kursi qanday shakllanadi?

Bunday ma’lumotlar haqida avval deyarli xabardor bo‘lmasdik. Asosiy stavka foizi ochiq aytilsa ham sabab va omillari tahlil qilinmasdi. Keyingi to‘qqiz yilda barcha sohadagi ochiqlik sabab bank-moliya tizimidagi o‘zgarishlar aholiga muttasil yetkazib borilayotgani yurtdoshlarimizning bu boradagi savodxonligi oshishiga xizmat qilyapti. Hatto valyuta almashtirishda nafaqat mahalliy, balki jahondagi vaziyatni ham prognoz qila boshladik. Gap so‘nggi vaqtda aholi orasida qizg‘in muhokamalarga sabab bo‘layotgan valyuta almashuv kursi shakllanishi haqida boryapti.

— Markaziy bank almashuv kursi bo‘yicha maqsadli ko‘rsatkich belgilamaydi va kurs shakllanishiga aralashmaydi, — deydi Timur Ishmetov. — Milliy valyuta kursi ichki valyuta bozorida shu joyning talab va taklifi asosida shakllanadi. Keyingi vaqtlarda nisbatan qulay makroiqtisodiy sharoitlar valyuta bozoridagi ijobiy tendensiyalarni shakllantirmoqda. Natijada milliy valyuta almashuv kursi yil boshidan 3-4 foiz atrofida mustahkamlandi. Bunga qator omillar sabab. Xususan, joriy yilda milliy iqtisodiyotda xorijiy valyuta taklifi sezilarli darajada yuqori shakllanmoqda. Mart-iyul oylarida oltinsiz eksport qariyb 20 foiz oshdi. Xorijiy investitsiya va xalqaro instrumentlar oqimi ham sezilarli ortishi kuzatilmoqda. Birgina misol, joriy yilning birinchi yarmida xorijiy investitsiyalarni o‘zlashtirish ko‘rsatkichi 37 foiz o‘sdi. Yurtimizga 12,1 milliard dollarlik pul o‘tkazmalari kelib tushdi. Bu o‘tgan yilga nisbatan 23 foiz ko‘p. Banklar tomonidan jismoniy shaxslarga sotilgan valyuta hajmi sezilarli pasayib, banklarga sotilgan valyuta hajmi oshdi. Bunda sotilgan va olingan valyuta hajmi o‘rtasidagi tafovut 5,6 milliard dollarni tashkil etdi (aholi banklarga ko‘proq valyuta sotdi). Bu o‘tgan yilga nisbatan 40 foiz ko‘p demakdir.

Ya’ni biz xorijiy valyuta kursi pastlamasligi va doimiy oshib borishiga odatlanib qolganmiz. Ammo sanalgan qator omillar sabab endi bu tendensiya o‘zgardi. Nazarimizda valyuta almashuv kursidagi tushish va ko‘tarilish odatiy holga aylanadi. Bu ijobiy holat sifatida baholanmoqda.

> **Inflyatsiyani pasaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar jarayonida pul bozoridagi sharoit nisbatan qat’iy bosqichda shakllanib, aholining jamg‘arish faolligi oshib borayotgani ham muhim jihatlardan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Natijada joriy yil ikkinchi choragida pul bozori foiz stavkalari asosiy stavkaga yaqin, inflyatsiyadan 3-4 foizlik ijobiy tafovut bilan shakllangan.**

Mazkur jihatning saqlanib qolishi va almashuv kursining barqarorligi so‘mda jamg‘arish jozibadorligini oshirib, aholi omonatlarida yuqori o‘sish sur’atini ta’minlamoqda. Ma’lumotlarga ko‘ra, ayni paytda aholi omonatining qariyb 80 foizi so‘mda shakllangan bo‘lib, so‘mdagi muddatli depozitlarda yillik 1,5 barobar yuqori o‘sish sur’ati saqlanib qolmoqda.

Umuman, transchegaraviy pul o‘tkazmalari hajmining barqaror o‘sishi, iqtisodiyotda kreditlash sur’ati jadallashuvi, byudjet xarajatlari o‘sishi hamda investitsiyaviy faollik yuqori bo‘lishi yalpi talabni faol rag‘batlantiruvchi omillardan ekani aytilmoqda. Nisbatan qat’iy pul-kredit sharoiti davom ettirilishi esa milliy iqtisodiyotda jamg‘arish jozibadorligini saqlab, kreditlash sur’atini maqbullashtirish va pul bozorida resurslar narxini mutanosib shakllantirish orqali yalpi talabni muvozanatlashtirishga xizmat qiladi. Asosiysi, inflyatsiyaga monetar (pul-kredit siyosati) omillarning ta’sirini kamaytiradi.

Iroda TOSHMATOVA,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Islohotlar samarasi

Elnora UMMATOVA,
Forish tumani hokimi o‘rinbosari

FORISH – QUYOSHDAN QUVVAT, TOSHDAN QUDRAT YARATAYOTGAN ZAMIN

Forish tumani 90 yil muqaddam tashkil topgan. Hududi eng yirik tuman hisoblanadigan Forish dastlab Samarqand, so‘ng Sirdaryo, 1974-yildan boshlab Jizzax viloyati tarkibiga kirgan. Uzoq yillardan buyon tumanga uzumchilik, qorako‘lchilik, yilqichilik uchun mos joy deb qarab kelindi.

Sanoat va ishlab chiqarish tarmog‘i deyarli rivojlanmagani uchun tuman doim davlatdan dotatsiya olgan. O‘z-o‘zidan aholining turmush sharoiti nisbatan past, tuman markazi ham qariyb qishloqdan farqi yo‘q edi. 2019-yil yanvar oyida Prezidentimizning tumanga tashrifi forishliklar hayotida yangi sahifa ochdi. O‘sha tashrifda Forish imkoniyatlari bo‘yicha eng boy tumanlardan biri ekani, lekin boshqa hududlardan bir oz orqada qolgani, qishloq xo‘jaligi, geologiya, qayta ishlash sohalaridagi imkoniyatlarini to‘g‘ri ishga solish orqali aholi farovonligi, mahalliy byudjetni oshirish mumkinligi aytilgan edi. Shundan kelib chiqib, mutasaddilarga mavjud imkoniyatlarni ishga solish, tuman markazini zamonaviy qiyofaga keltirish, infratuzilmani yaxshilash, tadbirkorlikni rivojlantirish, yangi ish o‘rinlari yaratish bo‘yicha qat’iy topshiriqlar berildi.

Natijada bir necha yil ichida tuman markazi — Bog‘don shaharchasi yangi ko‘rinish kasb etdi. U yerda ko‘p qavatli uylar, savdo do‘konlari, xizmat ko‘rsatish obyektlari qurildi. Tuman markazi aholisi toza ichimlik suv bilan ta’minlandi. Dehqonchilik va bog‘dorchilik keng rivojlandi. Muhimi, Forishga sanoat kirib keldi. Osmonsoy konidan bazalt tosh qazib olib, undan tola tayyorlash yo‘lga qo‘yildi. Bugun cho‘l bag‘rida paydo bo‘lgan shaharcha va yirik sanoat korxonalari mo‘jizaning o‘zginasi.

Bundan millionlab yillar oldin paydo bo‘lgan tog‘lar bag‘rida yastanib yotgan bazalt toshlar bugun ulkan loyihaga asos bo‘ldi. Bazalt toshni foydali qurilish mahsuloti qilish g‘oyasi tumanni mamlakatimizda innovatsion markazga aylantirdi, desak mubolag‘a bo‘lmas. “Basalt Uzbekistan” klasteri, uning tarmoqlari orqali bazaltdan innovatsion texnologiya asosida qurilish sanoati uchun muhim bo‘lgan direkt roving, fibra, armatura, kompozit geoto‘r, quvurlar, mato va issiqlik-izolyatsiya plitalari kabi 42 turdagi mahsulot ishlab chiqarilmoqda. Ushbu loyiha sabab minglab ish o‘rinlari yaratildi. Aynan bazalt toshdan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar bugun dunyo bozorida raqobatbardosh mahsulot sifatida e’tirof etilmoqda. Energiyatejamkor mahsulotlardan nafaqat qurilish, sanoat, balki avtomobilsozlik, kemasozlik va aviasozlikda ham foydalanilmoqda. Tumanda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar o‘zbek bozoridan tashqari, xorijga ham eksport qilinmoqda. Bazaltning 90 foizi xorij bozoriga yo‘naltirilmoqda. Bu raqamlar kelgusida yanada oshadi.

Joriy yilning olti oyi davomida tumanda qiymati 9 milliard 270 million so‘mlik 18 ta loyiha ishga tushirilib, yuzdan ziyod yangi ish o‘rni yaratildi. 58,1 million dollarga teng investitsiya jalb etildi. Yil yakuniga qadar yana 33 loyiha amalga oshishi hisobiga 590 ta ish o‘rni yaratish ko‘zda tutilgan. Jumladan, yil yakuniga qadar xorijiy investitsiya ishtirokidagi “Eko sement” MCHJning qiymati 120 million dollar bo‘lgan sement ishlab chiqarish loyihasi ishga tushiriladi. Bundan tashqari, “Bazwool” MCHJ tomonidan bazaltdan vata ishlab chiqarish korxonasi faoliyat boshlab, 277 kishi ishli bo‘ladi. Shuningdek, joriy yilning o‘tgan davrida 11 million 538 ming dollar miqdorida sanoat hamda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari eksporti amalga oshirildi.

Tuman nomini yanada tanitadigan loyihalardan biri ayni paytda qurilishi qizg‘in davom etayotgan quyosh fotoelektr stansiyasidir. “Egizbuloq” MFY hududida, 1088 gektar maydonda qurilayotgan bu obyekt energetika mustaqilligi barobarida ekologik va innovatsion o‘zgarishlar sari muhim qadamdir.

China State Electrical, China Electrical Equipment, CHD va Poly Changdo kompaniyalari ishtirokidagi qurilish ishlari 2024-yilning dekabr oyida boshlangan bo‘lib, bugun loyiha ofisi hamda bir necha kilometrga cho‘zilgan quyosh panellari sabab ish darhol ko‘zga tashlanadi. Bir necha oy burun tap-taqir bo‘lgan bu hududda ish qaynayotgani bejiz emas. Bu yerda 500 MVt quvvatli fotoelektr stansiyasi va havo elektr uzatish tarmog‘i bunyod etilyapti. Bunday katta hajmli loyiha viloyat uchun noyob bo‘lib, hududning tekisligi va ochiqligi, quyoshli kunlar ko‘pligi tabiiy imkoniyat manbai hisoblanadi.

Ayni kunda qo‘shimcha yettita bino-inshoot qurilishi jadal davom etmoqda. Bu yerda xitoylik yuzdan ziyod mutaxassis ishlayapti. Joriy yil yakunida stansiyaning 200 MVt quvvatli bir navbati tok ishlab chiqarishni boshlaydi.

Loyihaning to‘liq ishga tushish muddati 2026-yilning mart oyiga mo‘ljallangan. Quyosh fotoelektr stansiyasining ishga tushishi natijasida 450 ming aholining elektr tokiga ehtiyoji qoplanadi. Rejaga ko‘ra, bu yerda ishlab chiqarilgan elektr toki Zafarobod podstansiyasiga uzatiladi. U yerdan taqsimlangan nur aholi xonadonlari va tashkilotlarga kirib boradi. Shuningdek, Jizzax shahriga ham elektr tokini uzatish maqsadida 500 dona simyog‘och o‘rnatiladi. 350 million dollar evaziga bunyod bo‘layotgan bu stansiya “Atrof-muhitni muhofaza qilish va “yashil iqtisodiyot” yili”da amalga oshirilgan eng yaxshi loyihalardan biri bo‘ladi.

Majmuaning ishga tushishi nafaqat energetika barqarorligi, atrof-muhit tozaligida, balki mahalliy aholini ish bilan ta’minlashda ham katta ahamiyatga ega. Ayni vaqtda bu yerda 400 dan ziyod mahalliy yosh ish bilan band. Loyiha to‘liq ishga tushgach, stansiyaga xizmat ko‘rsatuvchi doimiy 150 ta ish o‘rni yaratiladi.

Forishdagi yaydoq dalalarda ana shunday inshootlar barpo bo‘lishini kim ham o‘ylabdi deysiz! Bular yangi O‘zbekiston inshootlari — ularning shakli ham, mazmun-mohiyati ham, qiladigan ishi ham har jihatdan chiroyli, xalqqa foydali va dunyo trendlariga monand.

Yangi O‘zbekistonning yangi energetika tizimi uni mustaqil va boshqalarga tobe qilmaydi. Yurtimizning porloq quyoshi endi xonadonlarimizga sim tolalar bo‘ylab yorug‘lik ko‘rinishida kirib boradi.

Shu bilan birga, tuman tabiiy go‘zalligi, qadimiy qishloqlari, nodir hayvonot va nabotot olami, musaffo havosi bilan turizm sohasida ham jadal rivojlanmoqda. Ayniqsa, Aydarko‘l, Uxum, Porasht, Mojrum, Arsaf, Kattabog‘don, Yomchi va boshqa tog‘li maskanlarda ekoturizmni rivojlantirish uchun ulkan imkoniyatlar mavjud. Har yili mahalliy sayyohlardan tashqari, minglab xorijlik, asosan, Yevropa mamlakatlaridan sayyohlar tashrif buyuradi.

Uxumga turizm qishlog‘i maqomini berish harakatlari boshlangan. Bu esa sayyohlarni yanada ko‘proq jalb qilish va aholining turmush farovonligi oshishida muhim rol o‘ynaydi.

Darhaqiqat, Forish imkoniyatlari keng tuman. Ushbu imkoniyatlardan unumli foydalanib, bundan keyin ham bor e’tiborimizni tumanimizni yangi O‘zbekistonning yanada obod va farovon, iqtisodiyoti va ijtimoiy sohalari bundan-da barqaror rivojlanayotgan, turizm salohiyati oshib borayotgan hududlardan biriga aylantirishga safarbar etamiz.

Mulohaza

Bugun dunyo sport sahnasida O‘zbekistonning alohida mavqega ega bo‘lishida, shubhasiz, boksning beqiyos o‘rni bor. Zalvorli zarbalaru chidam va bardosh, qat’iyat va sabr, yengilmas ruhiyat hamda yuksak axloq — bularning barchasi o‘zbek bokschilarini dunyoga tanitdi, muxlisu mutaxassislarni e’tibor va ehtirom bilan qarashga, raqiblarni hurmat va hadik bilan ringga qadam qo‘yishga majbur etdi. Ana shunday natijalar ortida murabbiylar mehnati, davlat siyosatining ko‘lami va eng muhimi, xalq ishonchi mujassam. Bu ishonch so‘nggi yillardagi keng qamrovli islohotlar, sport infratuzilmasiga qaratilgan katta e’tibor tufayli mustahkam poydevorga ega bo‘ldi.

RINGDAN JAMIYATGA, JAMIYATDAN YANA RINGGA QAYTADIGAN KUCH OQIMI

“Uzbek power” — o‘zbek qudrati deya e’tirof qozongan milliy boks maktabimiz vakillari ana shu sa’y-harakatlarning hayotdagi amaliy ifodasi sifatida muntazam ravishda jahon arenalarida ham professional, ham havaskor yo‘nalishda yuqori natijalarni qayd etib kelmoqda. Jumladan, 4-14-sentabr kunlari Buyuk Britaniyaning Liverpul shahri mezbonligida kattalar o‘rtasida jahon chempionati o‘tkazildi. Ikkita tarkib bilan ishtirokini boshlagan terma jamoamiz yakunda 6 ta oltin, 2 ta kumush va 3 ta bronza medal bilan umumjamoa hisobida ikkinchi, erkaklar tarkibida esa birinchi o‘rinni egalladi. Oltin medallarni Abdumalik Xalokov, Asadxo‘ja Mo‘ydinxo‘jayev, Fazliddin Erkinboyev, Javohir Ummataliyev, Akmaljon Isroilov va To‘rabek Habibullayev qo‘lga kiritgan bo‘lsa, Navbahor Hamidova va Jahongir Zokirov musobaqaning kumush medallariga ega chiqdi. Sabina Boboqulova, Feruza Kazakova va Aziza Zokirova esa bronza medallar bilan kifoyalandi.

Tan olish kerak, terma jamoamizdan bundan-da ko‘prog‘i kutilgan, bu safar ham umumjamoa hisobidagi birinchilikni egallashimizga ishonchimiz komil edi. Biroq qaysidir joyda omad, qay bir o‘rinda bir oz tajriba yetishmadi, ya’ni bu galgi musobaqada jamoa yangilangan, nisbatan yosh tarkib bilan qatnashganini nazardan qochirmasligimiz lozim. Yurtimiz charm qo‘lqop ustalari zafarli odimlariga bizni shu qadar o‘rgatib qo‘yibdiki, bundan buyon birinchilikdan boshqa har qanday natijani qabul qilishimiz qiyin kechadigan bo‘lib qoldi. Ammo shunchaki biz zo‘rmiz degan eyforiyaga berilish ham yaramaydi, buni bir vaqtlar jahon sport olamini zir titratgan Kuba boksining bugungi ahvoli misolida ham ko‘rish mumkin. Rivojlanishdan, harakat va izlanishdan bir zum ham to‘xtashga mutlaqo haqqimiz yo‘q. Zero, bugunga kelib boksning mohiyati xalqimiz uchun faqat sport turi ekani bilan cheklanmaydi, yutuqlar kelajak uchun ishonch manbaiga aylansa, har qanday mag‘lubiyatdan ko‘nglimiz xira tortadi, sportchilarimiz — millatimiz vakillari uchun qayg‘uramiz.

Demak, bokschilarimizning jahon arenalaridagi muvaffaqiyati birgina medallar shodasining soniyu salmog‘i doirasida qolmaydi. U jamiyat hayotiga kirib boradi, milliy ruhni uyg‘otadi, natijada yosh avlod orzusi maqsad sari evrila boradi.

* * *

Inson psixologiyasida bir jihat bor: hamisha natijalarga qarab fikr bildiriladi, e’tirof etilib, maqtaladi, ya’ni ko‘pincha shu marragacha olib kelgan yo‘l, sabab va omillar nazardan chetda qoladi. Birgina kapalak parvozi uchun butun boshli osmon kerak bo‘lganidek, bunda muhit, imkoniyat va sharoit birlamchi omil sanaladi. Bugungi g‘alabalar zamirida ham xuddi shunday: konstitutsiyaviy asos, davlat siyosati, mahalla va maktab, ustoz va ota-onalarning bahamjihat mehnatlari mujassam. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada “jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish uchun sharoit yaratish”ni davlat zimmasiga yuklagan norma aniq yozib qo‘-yilgan — ishonch va muvaffaqiyat qal’asining poydevori ayni shu joydan boshlanadi. Bu poydevor ustiga 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasi g‘isht qo‘ydi: jamiyat hayotida ommaviy sportning hissasini oshirish, yoshlarni sog‘lom turmush tarziga jalb etish, hududlarda yugurish va veloyo‘laklar, workout maydonlar barpo etish, muntazam shug‘ullanuvchilar ulushini 2026-yilga qadar 33 foizga chiqarish vazifasi belgilandi.

Tashkiliy tuzilma ham qayta tiklandi. 2024-yildan Sportni rivojlantirish vazirligi Sport vazirligi o‘laroq yuritila boshlandi. Hukumatning 2025-yil avgustidagi qarori esa sport sohasida davlat boshqaruvi mexanizmlarini yangilab, vazifalarni qayta taqsimladi — markazdagi siyosat bilan joylardagi ijro o‘rtasidagi mas’uliyat chiziqlari aniqroq bo‘ldi. Shu tariqa hujjat tilidagi arzimasdek ko‘ringan o‘zgarishlar sport zallarida real qoida va javobgarlikka aylandi.

Infratuzilma masalasida “sport-ta’lim” bog‘lami alohida halqa. Olimpiya va paralimpiya turlariga tayyorlov markazlarini qurish, rekonstruksiya qilish hamda kompleks ta’mirlash dasturi 2022-2025-yillarga mo‘ljallangan “yo‘l xaritasi”ga kiritildi. Shu taxlit sportchi yosh yigit-qizlar o‘qishdan uzilmaydigan, murabbiy esa ilg‘or metodikani tizimli qo‘llash imkoniga ega bo‘ldi. Vazirlikning 2025-yildagi buyrug‘i bilan esa 2025-2028-yillar kesimida sport turlari bo‘yicha bosqichma-bosqich rejalashtirish tizimi yo‘lga qo‘yildi. Xususan, seleksiya, musobaqa, tiklanish va psixologik tayyorgarlik jarayonlari bir-biriga integratsiya qilindi, muayyan tartibga solindi.

Mazkur dasturlarda iqtidorli yoshlarni jismoniy tayyorgarlik sinovlari orqali sport maktab-lariga seleksiya qilish, mahalliy boshqarmalar va ta’lim muassasalarini bir siklga ulash ko‘zda tutilgan. Bu tizim Andijon yoki Jizzaxning chekka qishlog‘ida shug‘ullanayotgan bolakayga ham, Qoraqalpog‘istonning uzoq ovulida yashovchi bo‘lajak chempionga ham bir xil signal beradi: manzil bir, mezon aniq, yo‘l esa ochiq.

Boks shu zanjirda sinov poligoni vazifasini bajarmoqda. Qattiq intizom va nazorat, jarohat profilaktikasi, og‘ir-yengil vaznlar bo‘yicha tizimli rejalashtirish, murabbiylar uchun malaka oshirish kurslari — bularning barchasi ringdagi natijalarda aniq ko‘rinadi. Islohotlarning eng sezilarli tomoni ham shu: natija faqat medallar soni bilan o‘lchanmaydi, barqarorlik, zaxira, moddiy-texnik baza, odob va halollik mezonlari bilan baholanadi. Shunda “ustoz — shogird — mahalla — klub — terma jamoa” zanjiri uzilmaydi, bokschi shahardagi yirik markazdan uzoqda bo‘lsa ham o‘zi uchun yo‘l topadi. Shu barcha jihatlar jamlanib bir mushtga aylanganida ringda zarba aniq bo‘ladi, ringdan tashqarida esa ijtimoiy ruh ko‘tariladi.

Siyosiy, madaniy va ruhiy qatlam in’ikosi

Ringdagi jang bir qarashda faqat ikki sportchi o‘rtasidagi kurash bo‘lib ko‘rinadi. Aslida, unda butun bir jamiyatning hayoti, ruhiyati va madaniy qiyofasi mujassam bo‘ladi. O‘zbekiston boksi shu jihati bilan ajralib turadi. U maydondan tashqarida ham xalq kayfiyatini ko‘taradi, jamiyatdagi o‘zgarishlarga ta’sir ko‘rsatadi.

Musobaqalardan keyin bo‘ladigan taqdirlash marosimlarida g‘olib sportchi sharafiga uning vatani bayrog‘i yuqori ko‘tarilib, o‘sha yurt davlat madhiyasi yangraydi. Bu bejiz emas, o‘ziga xos ma’no-mazmun kasb etadi. Jahon arenalaridagi katta g‘alabalar siyosiy nufuzni oshiradi, mamlakat imijini mustahkamlaydi. Dunyoning turli burchaklarida O‘zbekiston nomini eslatib turgan bokschilar mamlakatning xalqaro maydondagi ovozi bo‘lib yangraydi. Shu bois, har bir jang nafaqat sportchilar, balki davlatning siyosiy qiyofasi uchun ham katta ahamiyatga ega.

Boks zallari esa bugungi kunda mahalliy madaniyat o‘choqlariga aylangan. Bu yerda yoshlar zarba berish yoki himoyalanishni o‘rganishdan tashqari tartib-intizom va mehnatni qadrlashni ham o‘zlashtiradi. Murabbiylarning har bir ko‘rsatmasi ular ongiga hayotiy saboq sifatida singadi. Ustozining ko‘rsatmasiga quloq solib mashq qilgan o‘quvchi keyinchalik hayotning bosh-qa maydonlarida ham itoat va hurmatni qadrlaydi. Shu tariqa boks zallari yoshlar ongiga mustahkam qadriyatlar singdiriladigan maktab vazifasini bajaradi.

Boksning jamiyat hayotidagi eng chuqur ta’siri xalq ruhiyatida namoyon bo‘ladi. G‘alaba onlari butun yurtni birlashtiradi. Kechqurun televizor qarshisida sportchi uchun qayg‘urgan va quvongan xalq ertasi kuni butunlay boshqacha kayfiyat bilan yashaydi. Bir sportchining oltin medali yuz minglab odamlar hayotida quvonch manbai bo‘lib aks etadi. Shu bilan birga, boks yoshlarni ijtimoiy muhitdagi turli zararli odatlardan asraydi. Mashg‘ulotga kelgan bola vaqtini behuda o‘tkazmaydi, kuchini foydali maqsadga sarflaydi. Ringda u nafaqat raqib bilan, balki o‘zining dangasalik va loqaydlik sifatlari bilan kurashadi. Shu jihatdan boks ruhiy tozalanish vositasiga aylanadi, yoshlarni sog‘lom hayotga yo‘naltiradi. Qisqacha aytganda, sport, xususan, boks jamiyatning siyosiy, madaniy va ruhiy qatlamlarida o‘zining barqaror o‘rnini egallagan.

O‘zbekiston boksi bugun jamiyat hayotining ajralmas qismi bo‘lib, xalqni birlashtiradigan kuch sifatida ko‘rinmoqda. Shu ma’noda, u oddiy musobaqa ko‘rinishidan chiqib, xalq ruhiyatini, jamiyatning ijtimoiy qiyofasini ifodalovchi hodisaga aylandi. Har bir medal xalq kayfiyatiga bevosita ta’sir qilmoqda, yoshlarni yangi marralar sari undamoqda. Ayniqsa, yosh avlod orasida boksga qiziqish kuchaygani, ring ortidan hayotga tatbiq etilayotgan sabr va matonat ruhiyati islohotlarning samarasini yanada yorqinroq ko‘rsatadi.

Jahon tajribasiga qarasak, sport ba’zan milliy qiyofani butunlay yangilab yuborganiga guvoh bo‘lamiz. Masalan, 1960-yillarda Muhammad Ali ringda qozongan g‘alabalari bilan nafaqat AQSH sportini, balki butun afroamerikaliklarning huquq uchun kurashini ramziy ravishda ifodalagan edi. Yaponiyada esa boks unchalik ommalashmagan bo‘lsa-da, bokschilarining g‘alabasi millatni global sahnaga olib chiqqan. Shunday misollar o‘zbek boksiga ham uyg‘un keladi: har bir jang, har bir zarba xalq ongida mustaqillik va erkinlik ruhini yanada mustahkamladi.

Milliy ruhning kuchi ko‘pincha oddiy voqealarda namoyon bo‘ladi. Masalan, 2023-yilda Toshkent mezbonlik qilgan jahon chempionatidan so‘ng ko‘plab qishloq maktablarida bokschilarga bag‘ishlangan stendlar paydo bo‘ldi. Yoki bo‘lmasa, qadimiy odat bo‘yicha katta janglardan keyin ko‘plab mahallalarda o‘sha sportchining sharafiga dasturxon yozilganini, hatto yaxshi niyat bilan kishilar farzandlariga ularning ismini qo‘yishi urf tusiga kirganini eslash kifoya. Bu holatni hech qanday rasmiy tashviqot bilan almashtirib bo‘lmaydi, nazarimda.

Yana bir qiziq jihat, sport ko‘pincha xalqni qo‘rqinch va xavotirdan xalos qiluvchi omil sifatida ham namoyon bo‘ladi. Jahonning ko‘plab mamlakatlarida og‘ir ijtimoiy vaziyatlarda sportchilar xalqni ruhiy tushkunlikdan olib chiqqan. Ikkinchi jahon urushidan keyingi Germaniyada futbol qanday rol o‘ynaganini eslaylik. Bugungi O‘zbekistonda esa boks millatni yagona maqsad sari birlashtiruvchi ishonch manbaiga aylanmoqda.

Tarix va bugun: yangi sport maktabi

O‘zbekiston boksi bugungi cho‘qqilarga birdaniga ko‘tarilmadi. Bu yo‘lning boshlanishi o‘tgan asrning o‘rtalariga borib taqaladi. Ilk tajribalar o‘zbek yigitlari uchun katta sinov bo‘ldi. 1960-1970-yillarda respublikada boks bo‘yicha ilk musobaqalar o‘tkazildi, kichik zal va sport maktablaridan yoshlar tanlab olindi. Shu davrda xalqning e’tiboriga tushgan dastlabki chempionlar paydo bo‘ldi, ularning mehnatu zafarlari keyingi avlod muvaffaqiyatlari uchun zamin hozirlagani shubhasiz.

Rivojlanishning keyingi bosqichida, aniqrog‘i, mustaqillikdan so‘ng o‘zbek boksi o‘z yo‘lini aniq belgilab oldi. 1990-yillar o‘rtalaridan bosh-lab xalqaro maydonda qatnashgan bokschilarimiz dunyo sahniga o‘z so‘zi va ovozi bilan kirib keldi. Atigi bir necha yil ichida Osiyo chempionatlari va Olimpiadalarda ilk yorqin natijalar qayd etildi. Muhammadqodir Abdullayevning Sidney Olimpiadasida oltin medal olishi milliy sport tariximizdagi burilish bo‘ldi. Ortidan Ruslan Chagayev, Hasanboy Do‘smatov, Shahobiddin Zoirov kabi ismlar ketma-ket paydo bo‘ldi va boks xalqning eng sevimli sportlaridan biriga aylandi.

Bu kabi yutuqlar asta-sekin bevosita xalq ruhiyati bilan uyg‘unlashdi. Rio Olimpiadasidagi rekord medallar, oldinroq Toshkentda, shu kunlarda Liverpulda o‘tkazilgan jahon chempionatining ulkan muvaffaqiyati, Parijda qayd etilgan g‘alabalar — bularning barchasi o‘zbek boksining xalqaro maydondagi nufuzini mustahkamladi. Endi ringda o‘zbek sportchisi deganda raqib ham, hakam ham, muxlis ham yuqori darajadagi jangga tayyor turadi.

O‘zbek boksining jahon arenalaridagi bu muvaffaqiyatlari bugungi kunda ham davom etmoqda. Eng muhimi, ushbu g‘alabalar endi bir shaxs yoki bir jamoaning yutug‘i sifatida qabul qilinmayapti. U butun xalqning g‘ururi, millatni birlashtiruvchi ramz sifatida qadrlanmoqda.

Kichik avlod kattalardan o‘rnak olishi, ulardan ruhlanib harakat qilishi haqida yuqorida aytib o‘tdik. Ayni shu jihatlarni inobatga olgan holda bevosita Prezidentimiz qarori asosida mamlakatimizda boksni yangi darajaga olib chiqish, shuningdek, iqtidorli sportchilarni professional bokschilar sifatida tayyorlash, Olimpiya o‘yinlarida g‘olib va sovrindor bo‘lgan sportchilarimiz faoliyatini keng targ‘ib qilish maqsadida yangi-yangi sport majmualari, xususan, ikki karra Olimpiya o‘yinlari,

ikki karra jahon chempioni, uch karra Osiyo chempioni Bahodir Jalolov nomidagi boksga ixtisoslashtirilgan sport maktabi tashkil etildi.

Muassasa yoshlarga tayanch, orzuga yo‘l, irodaga shakl beradigan maktab sifatida jamiyat ehtiyojini ifoda etuvchi maskan o‘laroq barpo etilgan ekan, uning shu vaqtga qadar mavjud bo‘lgan boshqa sport maktablaridan qanday farqi bor, amaliy ahamiyati nimada degan savollarga javob berib o‘tish kerak bo‘ladi.

Avvalo, bu yerga yurtimizdagi eng iqtidorli yosh sportchilar jalb etilishini ta’kidlash lozim. Ya’ni mahalla, umumta’lim maktablari, sport to‘garaklari bilan bir zanjirga bog‘langan seleksiya dasturi iqtidorlarni izlab topadi: koordinatsiya, reaksiya, chidamlilik, psixologik barqarorlik, hatto muloqot madaniyati tekshirib boriladi. Sinovdan o‘tgan o‘smir uchun murabbiylar tomonidan “yo‘l xaritasi” tuziladi. Shoshilinch natija talabi chetga suriladi, barqarorlik birlamchi tamoyil bo‘ladi.

Maktab eng zamonaviy anjom va jihozlar bilan ta’minlangan. Dars jadvali va mashg‘ulot jadvali bir-biriga xalaqit bermaydi, aksincha, to‘ldiradi. O‘qituvchilar, murabbiy, sport shifokori hamda psixolog bu yerda o‘zaro hamkorlikda ishlaydi. Darslarning o‘zlashtirilishi, chet til bo‘yicha ko‘nikmalar doimiy nazorat ostida, monitoring qilinadi. Shuningdek, shifokor jarohatlarning oldini oladi, tiklanish protokollarini belgilaydi, diyetolog ratsionni nazorat qilsa, psixolog qo‘rquvni, sahna hayajonini, mag‘lubiyatdan keyingi holatni tahlil qiladi. O‘quvchi o‘zini tinglashni o‘rganadi, yurak urishi va nafasini boshqaradi, stressni yo‘naltiradi. Shu tariqa ringga kirishdan oldin ham, keyin ham sportchi yoshlarda ong tiniq, konsentratsiya yuqori bo‘ladi.

Maktab nomidagi timsolning o‘zi ham katta tarbiya. Jalolov va boshqa boks yulduzlari ishtirokida tez-tez “ochiq dars”lar o‘tkaziladi: o‘quvchi sportchilar ustma-ust mashqlar, zarba kombinatsiyalari, ring ichidagi taktika, hakam bilan muomala, raqibni o‘qish usullari bilan bir qatorda kamtarinlik, halollik va mas’uliyat fazilatlaridan bevosita namuna olishi mumkin. Shunday muhitda iqtidor tez rivojlanadi, o‘z yo‘lidan og‘maydi.

Musobaqalarga tayyorgarlik alohida ilm. Ichki liga va ochiq turnirlar o‘quvchini bosqichma-bosqich katta sahna sari yetaklaydi. Dastlab nazorat janglari, keyin hududiy startlar, so‘ng xalqaro maydon. Bu rivojlanish halqasining eng oxirida milliy terma jamoa turadi. Maktab shunga ko‘prik quradi: terma jamoa murabbiylari bilan qo‘shma yig‘inlar, iqtidorlar ro‘yxati, rejalashtirilgan saralash, xalqaro lagerlar o‘tkaziladi. Natija sifatida mazkur muassasa tarbiyalanuvchilari orasidan O‘zbekiston milliy terma jamoasi safiga hozirgacha 19 sportchi jalb etilganini ta’kidlash o‘rinli. Ulardan 6 nafari asosiy, 13 nafari esa zaxira jangchilari sanaladi. Ushbu ko‘rsatkichlar hali boshlanishi ekaniga shubha yo‘q. Zotan, muassasa tashkil etilganiga ko‘p bo‘lganiga qaramay, allaqachon yurtimizning yangi boks markazi sifatida namoyon bo‘la boshladi.

* * *

Hayotning ayrim lahzalari xalqning umumiy xotirasida unutilmas iz qoldiradi. Sportdagi yangi marralar, katta muvaffaqiyat va g‘alabalarimiz ana shunday onlarni taqdim etar ekan, millat qalbida bir ishonch tobora yuksalib bormoqda: bu yurt yoshlarining bilagi baquvvat, yuragi katta, orzusi baland. Shu ishonch bugun barchamizni bir millat, yagona xalq sifatida birlashtirishga, vatanga daxldorlik hissi mustahkamlanishiga xizmat qilyapti. Boks orqali yurtimizdagi yoshlarga o‘rgatilayotgan eng katta saboq ham shu: vatan uchun kurashish, vatan uchun ter to‘kish, vatan uchun g‘alaba qozonish.

Asliddin ABDURAZZOQOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

YANGI O‘ZBEKISTON BUNYODKORIMIZ

Biz — yangi zamonning ijodkorimiz,
Poydevor qo‘yuvchi madadkorimiz,
Tinmay yo‘l quramiz kelajak uchun,
Yangi O‘zbekiston bunyodkorimiz.

Shu tuproqda o‘sgan faqirmiz yo shoh,
Uning ahvolidan bo‘lgaymiz ogoh,
Har qarich yeriga jondayin panoh,
Yangi O‘zbekiston bunyodkorimiz.

Ko‘ngil yorug‘lanar bir yo‘l qurilsa,
Kelin kelar uy deb devor urilsa,
Farovonmiz duo qilib turilsa,
Yangi O‘zbekiston bunyodkorimiz.

Qancha chig‘iriqda evrildi zamon,
Millatlar mustaqil bog‘larda omon,
Sarhadini asrab toblandi har jon,
Yangi O‘zbekiston bunyodkorimiz.

Yurt husniga boqdim gul oralab man,
Madhiga she’r bitdim gul saralab man,
To‘rt tomon chopsam-da, Vatan tarafman,
Yangi O‘zbekiston bunyodkorimiz.

Yurtboshi mehridan yurtdosh baxtiyor,
Inson qadri yuksak, qonun ustuvor,
O‘zbekiston nomi mangu ulug‘vor,
Yangi O‘zbekiston bunyodkorimiz.

O‘zbektosh TO‘RAXONLI,
O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a’zosi

Iftixor

JAHON CHEMPIONLARI MUNOSIB TAQDIRLANDI

O‘zbekistonda sport infratuzilmasi izchil yangilanmoqda. Xususan, zamonaviy tayyorgarlik bazalari barpo etildi. Ilmiy-tahlil xizmatlari hamda tibbiy-reabilitatsiya tizimi kuchaytirildi. Bolalar va o‘smirlar sport maktablaridan terma jamoalargacha olib chiqish bo‘yicha uzluksiz seleksiya zanjiri yo‘lga qo‘yildi. Bu islohotlar mahalliy mutaxassislar salohiyatini oshirish hamda xalqaro musobaqalardagi katta natijalar uchun poydevor bo‘lib xizmat qilyapti.

Shu mantiqiy silsilada jahon chempionatlarida qo‘lga kiritilgan sovrinlar uchun davlat darajasidagi rag‘batlantirish ham tizimli tus oldi. Jumladan, 18-sentabr kuni Milliy Olimpiya qo‘mitasida boks, og‘ir atletika hamda baydarka va kanoeda eshkak eshish bo‘yicha jahon chempionatlarida munosib ishtirok etgan sportchi va murabbiylarni taqdirlash marosimi o‘tkazildi. Tadbirda Prezident sovg‘asi sifatida BYD avtomobillari hamda bir martalik pul mukofotlari topshirildi.

Marosimda sportchi va murabbiylar nomidan so‘zlagan Ruslan Nurudinov, Abdumalik Xalokov, To‘lqin Qilichev hamda Javohir Ummataliyevning otasi Turobjon Ummataliyev davlatimizga va sport jamoatchiligiga minnatdorlik bildirib, natijalar va kelgusi maqsad-rejalar xususida fikr-mulohazalari bilan o‘rtoqlashdi.

A.KARIMQULOV,
jurnalist

SOG‘LOM TURMUSH
SAHIFASI

“NAFS KOMIGA IZTIROB ETMA”

Inson va salomatlik, parhez va to‘g‘ri ovqatlanish barcha zamonlarda dolzarb masala bo‘lgan. Odamning hayot tarzi, salomatligi, faoliyati, uzoq umr ko‘rishi, avvalo, to‘g‘ri ovqatlanish va me’yorga jiddiy amal qilishga bog‘liq. Masalan, ziyofatlar, to‘y-ma’rakalarda nafs jilovini erkin qo‘yib yuborish oshqozonni abgor qiladi. Odam organizmida yangi-yangi kasalliklarning paydo bo‘lishiga olib keladi.

Ashurali JO‘RAYEV,
O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan jurnalist

“O‘zbekiston” NMIUda ishlab yurgan kezlarimda, ya’ni 2015-yilda “Sog‘lom ovqatlanish — salomatlik mezoni” nomli salmoqli kitobni chop etganmiz. Sog‘lom kishilar va aholi o‘rtasida keng tarqalgan ko‘plab kasalliklarda parhez ovqatlanishning ijobiy va samarali usullaridan kengroq foydalanish hamda targ‘ib qilish aks ettirilgan bu kitobning asosiy tashabbuskori va g‘oya muallifi o‘sha paytdagi O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri Shavkat Mirziyoyev bo‘lgan va bevosita u kishi rahbarligida chop etilgan. Kitob 10 bobdan iborat bo‘lib, “O‘zbekistonda yetishtiriladigan hamda iste’mol qilinadigan va taomlar tayyorlashda foydalaniladigan mahsulotlarning tarkibiy qismlari”, “Oziq-ovqat mahsulotlari tarkibiy qismlarining biologik ahamiyati”, “Turli aholi guruhlarining sog‘lom ovqatlanish tamoyillari”, “Turli kasalliklarni davolashda parhez ovqatlardan foydalanish”, “Oziq-ovqat sifati, xavfsizligi hamda ularni ta’minlash” va “Parhez taomlarni tayyorlash namunalari” deb nomlangan boblarda to‘g‘ri ovqatlanish haqida juda muhim va hayotiy tibbiy ko‘rsatmalar hamda saboqlar ilmiy jihatdan keng qamrab olingan. Akademik Shavkat Karimovning umumiy tahriri ostida nashr etilgan ushbu kitob hukumat rahbarining ko‘rsatmasi bilan respublikaning barcha shahar va tumanlariga yetkazib berildi. Eng muhimi, bir necha bor qayta-qayta chop etildi va juda katta ijobiy natija berdi.

Keyin bu dolzarb mavzu davom etdi. Mazkur kitobning davomi sifatida Toshkent davlat tibbiyot universiteti professori, mashhur parhezshunos olima Guli Shayxovaning “Ovqatlanish saboqlari” nomli kitobi chop etildi. Bu kitobdan ham inson organizmining o‘sishi, rivojlanishi, hayot kechirish va kasalliklarga qarshi kurashish qobiliyatini oshiruvchi, sog‘lom turmush tarzining eng asosiy omillaridan biri — sog‘lom va to‘g‘ri ovqatlanish hamda unga bo‘lgan gigiyenik talablar, mutaxassisning ilmiy asoslangan ko‘rsatmalari o‘rin olgan.

Muallif sohasining yirik va bilimdon olimi sifatida ibratli va hayotiy misollar orqali o‘quvchiga bebaho tavsiya va saboqlar bergan. U bunday yozadi:

“...Ibn Sino bir qator ichki kasalliklar, yurak-qon tomir, jigar, buyrak va teri kasalliklaridan xalos bo‘lishda, birinchi o‘rinda, parhezga alohida e’tibor berish kerakligini uqtiradi. Tuxum oqini sut bilan birga, baliqni sut yo tuxum bilan iste’mol qilmaslik haqida ogohlantirgan. Shuningdek, u teri kasalliklari va ziqqinafasni davolashda yog‘li go‘sht hamda sabzavotlarni bir-biri bilan aralashtirmay yeyishni, taomnomada dukkaklilar va yong‘oqni kamaytirishni buyurgan”.

Biz nonni ko‘p iste’mol qilamiz. Deyarli hamma ovqatni non bilan yeyishga odatlanganmiz. Lekin mazkur kitobda nonni qaysi taomlar bilan qancha miqdorda yeyish kerakligi ilmiy misollar orqali ko‘rsatilgan: “Go‘shtli, quyuq taom non bilan yeyilmaydi... Nonni nonushta va tushlik paytida suyuq taomlar bilan birga bemalol iste’mol qiling. Ayniqsa, qora undan yopilgan non organizm uchun juda katta foyda beradi”. Shuningdek, muallif yozadi: “Axir taomlar aralashib ketsa, bundan organizm hech qachon foyda ko‘rmaydi, faqat oshqozonning zo‘riqqani qoladi... Ovqatni shirin choy bilan yeb bo‘lmaydi, ovqat ortidan shirinliklar yeyish ham xuddi shunday natija beradi. Yegan luqmangiz hazm bo‘lmaydi. Oqsilga boy go‘shtli taomlar faqat sabzavotli, ko‘katli ovqatlarga mos keladi...”.

Kitobda biz iste’mol qiladigan barcha mahsulot haqida aniq ma’lumotlar berilgan va ular ilmiy asoslangan jadvallarda ko‘rsatilgan.

Har ikki kitob ham to‘g‘ri va sog‘lom ovqatlanish uchun ibratli misollar va zarur hayotiy fikr-mulohazalarga juda boy. Gippokrat aytganidek: “Iste’mol qilayotgan taomingiz dori vositalari vazifasini o‘tasin, dori vositalari esa, oziq-ovqat mahsulotlaridan bo‘lsin”.

Shu o‘rinda jiddiy bir savol tug‘iladi: biz mutaxassislarning bunday aniq va to‘g‘ri ko‘rsatmalariga qanchalar amal qilyapmiz? Albatta, amal qilayotganlar bor. Lekin ularni ko‘p deb aytolmaymiz. Ko‘pchilik “Ko‘rdingmi osh — ko‘tarma bosh” degan maqolga hamon to‘la-to‘kis amal qiladi. Garchi maqol eski bo‘lsa-da, har bir zamonda yangrayveradi, ishtahaga turtki beraveradi. Ishtaha esa nafsning laganbardori.

Palovni yaxshi ko‘rish, ishtaha bilan yeyish odati ko‘proq o‘zbeklarga xos. Faqat osh uchun maxsus restoranlar, kafelar, choyxonalar bunyod etilgan. Biror-bir mahalla yo‘qki, choyxonasi bo‘lmasa.

Shularga tayanib aytish mumkinki, o‘zbeklarning sevgan taomi, shubhasiz, osh! Masalan, ertalab oshga boriladi. Tushlikda ham bir tanish oshga taklif qilgan. Kechqurun uyga kelsangiz, osh damlangan. Shu o‘rinda yana bir xalq maqoli yordamga kelib, ishtahani ochadi: “O‘ldirsa ham osh o‘ldirsin!”. Albatta, hali oshdan bo‘kib hayotdan ko‘z yumgan biror kimsa haqida eshitmaganmiz. Aksincha, maza qilib osh yeganimizni maqtanib yuramiz.

Bir safar shifoxonada O‘zbekiston xalq yozuvchisi Xudoyberdi To‘xtaboyev bilan bir paytda davolandik. Suhbatlarimizdan birida u afsuslanib bunday degan edi: “Farg‘onadan Toshkentga kelganimga salkam qirq yil bo‘lyapti. Shu davrda elga o‘n olti marta osh beribman. Shundan ko‘ra yarmiga osh berib, tejagan mablag‘imga dunyoni aylansam bo‘lar ekan”. Ustoz bir oz jim qolib, yana mavzuni davom ettirdi: “Hozir ham uchta davrada “gap” yeyman. Albatta, asosan osh bo‘ladi. Kundalik oshlarga ham borib turaman. Shifoxonada doktorlar parhez qiling, deydi. Parhez qilgan odam o‘zbekchilikdan chiqib qoladi-ku”.

Xalqimiz juda-juda sevib, maza qilib yeydigan ovqatlar sirasiga xamirli taomlar ham kiradi. Xo‘randalar mehrini qozonishda xamirli ovqatlar ham oshdan qolishmaydi. Norindan tortib, shilpildoqqacha, mantidan tortib, somsagacha ishtaha bilan iste’mol qilinadi. Bir norinxo‘rliklar, shilpildoqxo‘rliklar bo‘ladiki, odamlar bunday davralarni go‘yo zo‘r kitob o‘qiganday, kino yo spektakl ko‘rganday uzoq vaqt eslab, bir-biriga maqtanib, so‘zlab yuradi. Masalan, “Shilpildoqning qazisi toyning go‘shtidan bo‘lgan ekan” yoki “Norinning go‘shti mazali ot go‘shtidan ekan, sho‘rvasiga gap yo‘q”...

Xamirli ovqatlarni shunchalar yaxshi ko‘ramizki, ba’zan ularga mehrimiz jo‘shib ishtaha ochilib qolsa, tunda yotishdan oldin to‘yib yeb, keyin uxlaymiz. Bunday paytda oshqozon sho‘rlik esga tushmaydi. Jigar, buyrak kabi a’zolarimizning ozorini eshitmaymiz...

Qishning so‘nggi kunlari Qibray tumani Madaniyat qishlog‘i hududida joylashgan va peshtoqiga o‘qlovday harflar bilan: “Beshbarmoq №1” deb yozilgan, ko‘rinishidan go‘yo ishlab chiqarish korxonasini eslatuvchi oshxonaga bordik. Yemakxona xo‘randalar bilan tirband. Ishlar konveyer usulida tashkil qilingan. Xonaga kirib o‘tirishingiz bilan ofitsiant darhol buyurtma oladi. Ko‘p o‘tmay, kemani eslatuvchi yog‘och laganda qazi-qartasi bilan shilpildoq olib kelinadi. Shilpildoqdan so‘ng birpasda “Et — etga, sho‘rva — betga”, deb shilpildoqning sho‘rvasi keltiriladi.

Ikki kishi ko‘tarib keladigan yog‘och lagandagi shilpildoq qisqa vaqtda qo‘lma-qo‘l bo‘lib ketadi. Tashqarida — kirish eshigi oldida turib xo‘randalarni kuzata boshladim: aksariyati semiz, qorin qo‘ygan, kelbati polvonlarni eslatadi. Ayollarning ham qomati mantidan tortib, qopdaygina “nozik”. Nazarimda, semizlikka moyil insonlar xamirli taomlarni xush ko‘radi, shekilli.

Shu o‘rinda hammaga yaxshi ishtahalar tilab, yana bir jiddiy va o‘ta muhim fikrni aytishni lozim topdik. Aytaylik, odamning nafsi yuhoga, ishtahasi karnayga aylangan paytda oshqozondagi ahvol qanday ekan?! O‘pqon ishtahaning azobini oshqozon sho‘rlik tortmayaptimi? Og‘izdan ketma-ket tushayotgan laxta-laxta xamir oshqozonda “g‘isht”day qavat-qavat bo‘lib, kasallik devoriga asos solmayaptimi?

Bu ovqatlar ehtimol yoshlarning oshqozonida tezroq hazm bo‘lib ketar. O‘rta yoshdagilar, keksalarning oshqozoni og‘ir ahvolga tushib, azob chekadi-ku!

Nega bunchalar ovqatga o‘chmiz? Yo faqat ovqat yeyish uchun bu dunyoga kelganmizmi? Nega nafsimiz hakalak otib borayotir? Nahotki, irodamiz nafsni zanjirband qilishga qodir emas.

> **Biz nonni ko‘p iste’mol qilamiz. Deyarli hamma ovqatni non bilan yeyishga odatlanganmiz. Lekin mazkur kitobda nonni qaysi taomlar bilan qancha miqdorda yeyish kerakligi ilmiy misollar orqali ko‘rsatilgan: “Go‘shtli, quyuq taom non bilan yeyilmaydi... Nonni nonushta va tushlik paytida suyuq taomlar bilan birga bemalol iste’mol qiling. Ayniqsa, qora undan yopilgan non organizm uchun juda katta foyda beradi”.**

Professor Mirzakarim Norbekov aytganidek “Nafs — o‘ra. U kafanni ko‘rganidan so‘ng to‘yadi. Ishtaha haddan oshsa, gunohga botiradi, ochko‘zlikka ko‘prik bo‘ladi”.

Aslida, ko‘p va ustma-ust ovqat yeyish miya faoliyatini susaytiradi. Ruhiy va aqliy tarbiyaga putur yetkazadi. Oqibatda xotira pasayib ketadi. Bu ma’lumotlarni tibbiyot allaqachon tasdiqlagan.

Ovqatlanishimizda yana bir juda jiddiy muammo bor. Ba’zilar nonushtani yo yengil-yelpi yeydi, yo yemaydi... Peshinda ham o‘zini xafa qilmaydi. Lekin kechki ovqatni zo‘r berib iste’mol qiladi. Ko‘pchilik o‘zbek oilalari e’tibori va kuchini kechki ovqatga qaratadi. Quyuq va qovurilgan ovqatlarni asosan, kechki paytda yeyishga odatlanganmiz. Bunday holatda tuni bilan ichaklar va barcha hazm a’zolari zo‘riqib ishlashi oqibatida turfa kasalliklar paydo bo‘ladi. Aslida, kechki ovqatga yengil hazm bo‘ladigan taomlarni tayyorlash maqsadga muvofiq. Shunda oshqozon ham “minnatdor” bo‘lib, rahmat aytadi.

Agar qornimiz to‘yib, ovqatimiz ortib qolsa, bunga ham darhol gap topib: “Ol, oxirigacha yeb qo‘ygin. Nasibang qolib ketmasin. Axir nasibani Olloh beradi-ku! Ol-ol...”, deb majburlaymiz o‘zimizni yoki sherigimizni.

Shu o‘rinda esga yana maqol keladi: “Yomondan yarim qoshiq...”, deganlar. Ol, yeb qo‘ygin!..”. Laganda esa salkam o‘n qoshiqdan ko‘proq ovqat turibdi. Axir oshqozon somon xaltasi emas-ku!..

Taniqli xalq tabibi Abdulaziz Nuriddin o‘g‘lining hayotiy o‘gitlaridan:

“Salomatlikning boshlang‘ich manbai ham oziq-ovqat hisoblanadi. Oshqozon kasalliklarining sabablari noto‘g‘ri ovqatlanish tufayli sodir bo‘ladigan og‘ir dardlar. Nafs — odob, xulq-atvor ilmida ham muhim o‘rin tutadi... Ovqat issiq emas, iliq holda bo‘lsin, shuningdek, choyni ham iliq holda ichish lozim. Qaynoq holda iste’mol qilingan ovqat oshqozonga jiddiy zarar...”.

Gapning lo‘ndasini aytsak: ovqatlanish madaniyatimiz ancha sustlashib ketgan. To‘g‘rirog‘i, uni yo‘qotib qo‘yganmiz. Bilsak ham amal qilmaymiz.

Uyda ovqat, ko‘chaga sayr qilishga chiqamizu, maqsad ovqat yeyish bo‘ladi, gap-gashtaklardagi ovqatlarni aytish ham shart emas. Ba’zan telegramdagi guruhlarda sobiq sinfdoshlar, do‘stlar bir-biriga turli ovqatlarni reklama qilib, uchrashuvlarga taklif qiladi. Niyati — ovqat yeyish. Telegramdagi biror guruhda sinfdoshning o‘z sinfdoshlarini, do‘stlarini yangi kino yo spektaklga taklif qilganini ko‘rmadim. Endi kitob o‘qish, kutubxonaga borishga taklif haqida gapirmasa ham bo‘ladi.

Ushbu mulohazalar bilan ovqat yeyishga mutlaqo qarshi emasmiz. Niyatimiz — me’yorni bilaylik. Biz uchun oltindan ham qimmat bo‘lgan sog‘lig‘imizni asraylik. Sog‘liq esa nafsni tiyishdan, oshqozonni asrashdan boshlanadi. Mutafakkir Alisher Navoiy bobomiz topib aytganlaridek:

Nafs komiga iztirob etma,
O‘zniyu mulkni xarob etma.

Ya’ni nafs xohishini deb qayg‘u chekib, o‘zingni ham, mulkingni ham xarob etma...

Ko‘p yozilayotgani va ko‘p aytilayotgani bois, to‘ylarimizdagi o‘ta isrofgarchiliklar, haddan ziyod ovqatxo‘rliklar haqida batafsil to‘xtalmadik. Buning o‘zi katta va dolzarb mavzu. Hali unga ham qaytarmiz...

Yana bir o‘ta jiddiy muammo bor! Nafs oqibatida oshqozonni qiynab, tanamizdagi turli a’zolarni kasal qilib, oqibatda faqat poytaxtda emas, respublikamizning barcha

hududida dorixonalar haddan ziyod ko‘payib ketishiga munosib hissa qo‘shayotirmiz. Sog‘lom turmush tarziga, ovqatlanish madaniyatiga jiddiy e’tibor bersak, dorixonalar va shifoxonalar soni keskin kamayadi. Nafsini jilovlay olmagan va oshqozonni ayovsiz to‘ldirayotgan kimsalar, bilib qo‘ying, siz dorixona va shifoxona xizmatchilarini benihoya xursand qilyapsiz.

Eng muhimi, avvalo, nafsning nafsiga qulf urishdir. Jaloliddin Rumiy hazratlari yozganidek:

Kimki o‘z nafsini o‘ldirmish tugal,
Unga oftobu bulut ham bosh egar...

Nafsimiz, ayniqsa, go‘shtni, go‘shtli taomlarni ko‘rganda haddan oshib ketadi. Biz ishtaha bilan go‘sht yeymiz. Go‘sht asta-sekin bizni yeydi...

Ollohga shukr, mamlakatimiz tinch-osoyishta, oziq-ovqat taqchilligi yo‘q. Bozorlar, supermarketlar va barcha turlardagi do‘konlarda to‘kin-sochinlik.

Prezidentimizning O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o‘ttiz to‘rt yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqida mazmundor bunday so‘zlar bor:

“Kasalliklarni profilaktika qilish, aholi o‘rtasida sog‘lom hayot tarzini qaror toptirishga katta ahamiyat qaratyapmiz.

Aholining turmush sharoitlari yaxshilanib borayotgani natijasida o‘rtacha umr ko‘rish darajasi 73,8 yoshdan 75,1 yoshga uzaydi.

Biz ta’lim-tarbiya uchun, aholi salomatligi uchun, muallim va shifokorlarni qo‘llab-quvvatlash uchun qancha kuch va qancha mablag‘ kerak bo‘lsa, barchasini safarbar etamiz!”.

Bu so‘zlar zamirida xalqimiz salomatligi yo‘lidagi islohotlar samarasi yorqin namoyon bo‘lib turibdi. Davlatimiz qo‘llab-quvvatlab, g‘amxo‘rlik qilib turganda sog‘lig‘imizga, avvalo, o‘zimiz mas’ulmiz.

Keling, sog‘lom turmush tarzimizni yanada yuksaltirib, sog‘lom ovqatlanish yo‘l-yo‘riqlari va qoidalariga jiddiy amal qilaylik. Kelajakda o‘rta yoshni 80 va undan yuqorilarga uzaytiraylik.

To‘kin-sochin, turfa noz-ne’matlarga to‘la dasturxon atrofida o‘tirgan bo‘lsangiz, qo‘lingizga qoshiqni olishdan oldin o‘zingizga bunday savol berib ko‘ring: “Keragidan oshiqcha ovqat yeyish foydalimi yoki ziyon?”.

“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetalari tahririyati” DM

MUASSIS:
O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:
Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “SHARQ” NMAK mas’ul.

Bosmaxona telefoni: (71) 233-11-07.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro‘yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. **Buyurtma** G-946.
34830 nusxada bosildi.
Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. **Qog‘oz bichimi** A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

“SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi.

Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko‘chasi, 41-uy.

Navbatchi muharrir: Bahor Xidirova
Musahhih: Sherzod Mahmudov
Dizayner: Zafar Ro‘ziyev

Manzilimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko‘chasi, 85-uy

O‘zA yakuni — 21:20

Qabulxona: (71) 233-56-33 Devonxona va e’lonlar: (71) 233-70-98 E-mail: info@yuz.uz Veb-sayt: www.yuz.uz: (71) 233-47-05